4-son, 2025

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Scientific journal

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Scientific journal

ISSN: 3060-5474



ORIENTAL UNIVERSITETI

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Scientific journal

(To‘rtinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2025-yil 11-iyuldagi 372/4-son qaroriga muvofiq iqtisod va menejment fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Iqtisod, menejment va pul” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2025

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

Bosh muharrir:
Olimjon Astanaqulov, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Murodjon Axmedov, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Mas’ul muharrir:
Hayotjon Aminov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

“Iqtisod, menejment va pul” ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Saidaxror G‘ulomov	i.f.d., akademik – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Saidasror G‘ulomov	i.f.d., akademik – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Nurislom Tuxliev	i.f.d., akademik- tahrir hay’ati a’zosi;
4. Muxammadi Alimardonov	i.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Tulkin Rasulov	i.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi
6. Nargiza Mamanazarova	p.f.d., professor v.b. – tahrir hay’ati a’zosi
7. Bobir Tursunov	i.f.d., (DSc), dotsent – tahrir hay’ati a’zosi
8. Gulmira Azretbergenova	i.f.n., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi
9. Zurab Garakanidze	i.f.n., professor (Gruziya) – tahrir hay’ati a’zosi
10. Muhammad Iyd Balbaa	Ph.D., dotsent (Misr) – tahrir hay’ati a’zosi
11. Samshul Amry	Ph.D. (Malayziya) – tahrir hay’ati a’zosi
12. Aleksandr Gurnak	i.f.n., dotsent (Rossiya) – tahrir hay’ati a’zosi

MUNDARIJA

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna
Oliy ta’lim muassasalarida xavflarni strategik baholash va boshqarish usullari …… 4

Meliyev Isroil Ismoilovich
Davlat ulushiga ega korxonalarda faoliyat samaradorligini baholash masalalari …. 16

Mardonov Baxodir Baxronovich
Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va bozor mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari …… 30

Abdirashidov Ashirali Abdirashidovich
O‘zbekiston viloyatlarida iste’mol tovarlar bozorining jadal rivojlanish omillari va tendensiyalari ……. 43

Muratxodjayeva Feruza Xotamovna
Iqtisodiy reklama matnlarining ingliz va o‘zbek tillaridagi xususiyatlari ….…… 57

Унгалов Акмал Наврузович, Мадибоев Нодирбек Жамолидинов Олимжанов Нодир Олимжанович, Гаффоров Хусен Ширинович
Оценка влияния изменения климата на сток реки кашкадарья с использованием моделей CMIP5 ……. 66

Sodiqov To‘lagan Botirovich
Davlat soliq siyosati – tadbirkorlikni qo‘llab -quvvatlash uchun optimal soliq stavkalari ……..... 83

Esonboyev Baxodir Bakir o‘g‘li
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi rivojlanishini baholashning zamonaviy indikatorlari ……... 94

Xusniddinova Munavvar Sur’at qizi
Raqamli transformatsiya sharoitida o‘zbekistonda turizm xizmatlari samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari ……..…… 104

Berdaliyeva Muxabbatxon Zayniddin qizi
Islom moliyasi ekotizimida uy-joy xaridini moliyalashtirish amaliyoti (Malayziya tajribasi) ……...…… 116

Pulatova Moxigul G‘ayratovna
O‘zbekiston iqtisodiyotni raqamlashtirishning sifatli iqtisodiy o‘sishga ta’siri …….. 128

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XAVFLARNI STRATEGIK BAHOLASH VA BOSHQARISH USULLARI

STRATEGIC RISK ASSESSMENT AND MANAGEMENT METHODS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

МЕТОДЫ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ И УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna
Oriental universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
Tel.: +998 97 705-60-15
E-mail: n.mamanazarova1980@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-5701-8804

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida xavflarni strategik baholash va boshqarish masalalari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim tizimi barqarorligini ta'minlashda xavflarni erta aniqlash, ularning ta'sir darajasini baholash hamda oqibatlarini minimallashtirishga yo'naltirilgan yondashuvlar ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan xavflarni boshqarishning kompleks modeli taklif etilib, unda "Bow-tie" diagrammasi asosida sabab-oqibat zanjiri, profilaktika chorasi va javob strategiyalari tizimlashtirilgan. Shuningdek, tashkiliy, moliyaviy, axborot, kadrlar va ijtimoiy-psixologik xavflar turlari aniqlanib, ularning boshqaruv samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xavflarni strategik boshqarish oliy ta'lim muassasalari rivojlanishining ajralmas omili bo'lib, u qarorlar qabul qilishda aniqlikni oshiradi, resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi va ta'lim sifatini barqaror saqlashga xizmat qiladi. Maqola natijalari amaliy boshqaruv tizimlarida, strategik rejalashtirish jarayonlarida va ta'lim muassasalarini rivojlantirish dasturlarida qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: *xavf, strategik boshqaruv, baholash, ta'lim tizimi, oliy ta'lim muassasasi, xavf turlari, monitoring, barqaror rivojlanish, boshqaruv samaradorligi.*

Abstract. This article theoretically and practically analyzes the issues of strategic risk assessment and management in higher education institutions. The study develops approaches aimed at early risk identification, assessing their impact level, and minimizing consequences to ensure the stability of the education system. The author proposes a comprehensive risk management model based on the "Bow-tie" diagram, which systematically integrates the cause-consequence chain, preventive measures, and response strategies. Additionally, organizational, financial, informational, personnel, and socio-psychological risk types are

identified, and their influence on management effectiveness is examined. The research results demonstrate that strategic risk management is an integral factor in the development of higher education institutions, as it enhances decision-making precision, promotes efficient resource utilization, and contributes to maintaining consistent education quality. The findings of the article can be applied in practical management systems, strategic planning processes, and programs for the development of higher education institutions.

Keywords: *risk, strategic management, assessment, education system, higher education institution, risk types, monitoring, sustainable development, management effectiveness.*

Аннотация. В данной статье теоретически и практически анализируются вопросы стратегической оценки и управления рисками в учреждениях высшего образования. В исследовании разработаны подходы, направленные на раннее выявление рисков, оценку степени их воздействия и минимизацию последствий для обеспечения устойчивости системы образования. Автором предложена комплексная модель управления рисками, в основе которой лежит диаграмма «Bow-tie», систематизирующая цепочку причин и последствий, профилактические меры и стратегии реагирования. Кроме того, выделены типы рисков — организационные, финансовые, информационные, кадровые и социально-психологические, изучено их влияние на эффективность управления. Результаты исследования показывают, что стратегическое управление рисками является неотъемлемым фактором развития вузов, повышает точность принятия решений, способствует рациональному использованию ресурсов и обеспечивает стабильное качество образования. Полученные выводы могут быть использованы в практических системах управления, процессах стратегического планирования и программах развития учреждений высшего образования.

Ключевые слова: *риск, стратегическое управление, оценка, система образования, учреждение высшего образования, типы рисков, мониторинг, устойчивое развитие, эффективность управления.*

KIRISH

Har bir ta’lim muassasasi o‘zining maqsadlariga erishish jarayonida turli xil xavf va noaniqliklarga duch keladi. Bu xavflar ta’lim sifatiga, tashkilotning moliyaviy barqarorligiga va raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun xavflarni strategik baholash va boshqarish zamonaviy ta’lim boshqaruvining ajralmas qismiga aylangan. Xavflarni baholash — bu tashkilot uchun mavjud va ehtimolli xavflarni aniqlash, ularning yuzaga kelish ehtimolini va mumkin bo‘lgan ta’sirini o‘lchash jarayonidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim sohasida strategik boshqaruv jarayonida xavflarni boshqarish zarurati bo‘yicha qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, yurtimiz olimlaridan M.Isroiljonova ta’lim muassasalarida xavflarni boshqarishning tajribasi va istiqbollari haqida tadqiqotlar olib brogan (Исроилжонова М., 2025:44-47.), M.U.Axmedov ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy xavflarni tahlil qilib, ularni kamaytirishning strategik yondashuvlarini ishlab chiqqan (Ахмедов М.У., 2023). N.K. Mamanazarova (2023) ta’lim tizimidagi xavf omillarini monitoring qilish va strategik boshqaruvga integratsiya qilish tamoyillarini asoslagan, ta’lim muassasalarini samarali boshqarishda marketing xizmatlarini joriy etish mexanizmini ishlab chiqqan.

MDH olimlaridan S.Karapetyan (2023) oliy ta’lim muassasaning raqobatbardoshligi va samaradorligini ta’minlash uchun tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda potensial xavflarni aniqlash, tahlil qilish va boshqarish kerakligi ta’kidlanadi. Muallif xavflarni strategik boshqaruv tizimiga integratsiyalashni taklif etadi. E.V.Knyazeva (2020), A.A.Derkach (2019) kabi olimlar Oliy ta’lim muassasalarida xavf omillarini aniqlash, baholash va ularni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqqan bo‘lsa, N.V.Kuzmina (2018) – o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligi va rahbarlik qarorlaridagi xatoliklar ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi xavf sifatida o‘rganadi. I.V.Sergeyenko (2020) ta’limda xavflarni tahlil qilishda strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish va inson omilini muvozanatlash zarurligini ko‘rsatadi.

Xorij olimlaridan Sh.Rahayu (2024) oliy ta’lim institutlari akademik bo‘lmagan xavflarni kategorizatsiya qilishi, tahlil qilishi va boshqarishi kerakligini ta’kidlaydi hamda barcha ichki manfaatdor tomonlar jarayonga jalb qilinishi lozimligini aytadi. A.Siddiq pandemiya ta’lim tizimiga katta ta’sir ko‘rsatgani, HEIlar onlayn o‘qishga o‘tishi, sog‘liq-xavfsizlik choralarini qo‘llashi va jarayonni doimiy monitoring qilish zarurligini ko‘rsatgan (2022). J.Jemmy va S.Riyadilar xavflarni tizimli ravishda aniqlash, baholash va unga reaksiya (mitigatsiya/oldini olish) bo‘yicha yondashuvlar; xodimlarni tayyorlash, texnologiyani integratsiyalash, manfaatdor tomonlarni jalb qilish kabi qator tavsiyalar ishlab chiqqanlar (Jemmy J., Riyadi S., 2023: 14-27).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta’lim muassasalarida xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish uchun kompleks-strategik va amaliy-metodologik model ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash yuzasidan ishlar olib borildi. Bunda, oliy ta’lim muassasalarida yuzaga keladigan asosiy xavf turlari (tashkiliy, akademik,


moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, huquqiy)ni identifikatsiya qilindi, xavflarni strategik baholash uchun indikatorlar va mezonlar to‘plamini shakllantirildi, xavflarni prioritetlash va baholash uchun AHP, Bow-tie va Monte Carlo kabi usullarni moslashtirildi, xavflarni kamaytirish (mitigatsiya) va monitoring qilish mexanizmini ishlab chiqildi hamda taklif etilgan modelni bir yoki bir nechta oliy ta’lim muassasasida sinovdan o‘tkazib, natijalari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir ta’lim muassasasi o‘zining maqsadlariga erishish jarayonida turli xil xavf va noaniqliklarga duch keladi. Bu xavflar ta’lim sifatiga, tashkilotning moliyaviy barqarorligiga va raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun xavflarni strategik baholash va boshqarish zamonaviy ta’lim boshqaruvining ajralmas qismiga aylangan. Xavflarni baholash — bu tashkilot uchun mavjud va ehtimolli xavflarni aniqlash, ularning yuzaga kelish ehtimolini va mumkin bo‘lgan ta’sirini o‘lchash jarayonidir.

Yaqin yillargacha xavflarni baholash, asosan, faqat texnik sohalarda, xususan mashinali tizimlarni loyihalashda qo‘llanildi. Biroq, tashkiliy tizimlar haqida gap ketganda, texnik xavflarni baholash usullari ishonchsiz bo‘lib chiqdi. Tashkilotlarni boshqarishning miqdoriy usullari ishlab chiqarish jarayonlarining aniqligi haqidagi taxminlarga asoslangan edi, ya’ni shunday bir boshqaruv ta’siri mavjudki, u boshqariladigan obyektni muqarrar ravishda kerakli holatga olib keladi va menejmentning vazifasi bu ta’sirni aniqlashdan iboratdir deb hisoblandi.

Oliy ta’lim muassasalarida xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishda kompleks-strategik va amaliy-metodologik modelini taklif qilamiz (1-rasm).



1-rasm. *Oliy ta’lim muassasalarida xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishda kompleks-strategik va amaliy-metodologik modeli.*

Oliy ta’lim muassasalarida xavflarni aniqlash, baholash va boshqarishda kompleks-strategik va amaliy-metodologik modeli ta’lim muassasasida xavfni oldini olish, boshqarish va nazorat qilish jarayonlarini birlashtiradi. Model quyidagi uch asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Xavf sabablari (xavf manbalari). Bu bosqichda xavf paydo bo‘lishiga olib keluvchi ichki (boshqaruvdagi tizimsizlik, kadrlar malakasining yetarli emasligi, AKT infratuzilmasining sustligi, sifat monitoringining zaifligi) va tashqi (davlat siyosatidagi o‘zgarishlar, moliyaviy beqarorlik, global raqobat, tabiiy yoki texnologik ofatlar) omillar aniqlanadi.

Har bir sabab uchun profilaktik chora-tadbirlar belgilanadi: masalan, rahbar va pedagoglar uchun xavflarni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish, axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish, sifatni nazorat qilish mexanizmlarini raqamlashtirish.

2. Xavf hodisasi (asosiy voqea). Model markazida xavfning o‘zi — ta’lim sifati va boshqaruv barqarorligiga tahdid soluvchi hodisa joylashadi. Masalan: “Oliy ta’lim muassasasida boshqaruv tizimining ishdan chiqishi” yoki “Ta’lim sifati pasayishi natijasida muassasa reytingining tushib ketishi”. Bu bosqichda xavfning ehtimolligi va ta’sir darajasi maxsus xavf xaritasi yordamida baholanadi.

3. Xavf oqibatlari va yumshatuvchi choralar bosqichida xavf yuzaga kelgach paydo bo‘ladigan oqibatlar aniqlanadi. Masalan, ta’lim sifati pasayishi, talabalar ishonchi kamayishi, moliyaviy yo‘qotishlar sodir bo‘lishi, muassasaning nufuzi tushishi.

Har bir oqibat uchun yumshatuvchi (mitigatsion) sifatni ichki audit tizimi orqali nazorat qilish, tezkor javob berish (krizis menejment) guruhini shakllantirish, PR va imijni tiklash strategiyasini ishlab chiqish, moliyaviy barqarorlik zaxira fondini yaratish kabi chora-tadbirlar belgilanadi.

Xavflarni aniqlashda, shuningdek xavflarni boshqarish tizimining boshqa elementlari uchun zarur axborotlar bazasining mavjudligi hamda ularni qayta ishlash katta ahamiyatga ega. Ishonchli axborotlar har qanday xavflarni boshqarishda juda muhim o‘rin tutadi.

Xavf darajasini baholashda sifat va miqdoriy tahlil amalga oshiriladi. Sifat tahlili – xavf omillari asosida aniqlangan manbalar va potensial xavf zonalarini tahlil qilishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, sifat tahlili har bir tashkilot xavflari turiga xos bo‘lgan aniq omillar majmuasiga asoslanadi.

Xavflarni miqdoriy tahlil qilish xavf darajasini shakllantirishga qaratiladi. Miqdoriy tahlilda xavflarning bir nechta jihatlarini shartli ravishda ajratish mumkin:

1) Xavf darajasini baholash mezonlarini tanlash;

2) Tashkilot uchun maqbul bo‘lgan xavfning ayrim turlari darajasini aniqlash;

3) Alohida usullar asosida xavfning haqiqiy darajasini aniqlash;

4) Istiqbolda xavfni oshirish yoki kamaytirish imkoniyatini baholash.

Xavf darajasini baholash mezonlari umumiy yoki alohida xavf turlari uchun spesifik, ya’ni o‘ziga xos bo‘ladi. Xavflarning ruxsat etilgan miqdori tashkilot strategik rejasida belgilangan standartlar (limitlar va me’yoriy ko‘rsatkichlar) asosida o‘rnatiladi. Ushbu standartlar biznes-reja asosida shakllantiriladi.

Ta’limda xavflarni baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Xavflarni aniqlash – ta’lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar ro‘yxatini tuzish.

2. Ehtimollikni baholash – xavf yuzaga kelish ehtimoli:

Past – kamdan-kam holatlarda yuz beradi.

O‘rta – ba’zan uchraydi.

Yuqori – tez-tez ro‘y beradi.

3. Ta’sir darajasini baholash – xavf ta’siri natijasida ta’lim jarayoniga salbiy oqibatlar:

Yengil – tez tiklanadi.

O‘rta – jarayon sekinlashadi.

Og‘ir – rivojlanishga jiddiy zarar yetadi.

4. Xavf-matritsasia tuzish – ehtimollik va ta’sir darajasi asosida xavflarni ustuvorlik bo‘yicha tartiblash.

Xavflarni aniqlash (Xavf Identification)da ta’lim muassasasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha xavf va noaniqlik manbalari ro‘yxatga olinadi. Bu yerda ma’lumotlar manbalari sifatida o‘qituvchilar:

- boshqaruvchilar va texnik xodimlar tajribasi;

- oldingi voqealar tahlili;

- attestatsiya va akkreditatsiya natijalari hamda statistika ma’lumotlari, tashqi muhit omillari (qonunchilik, iqtisodiy holat, raqobatchilar, texnologiyalar) o‘rganiladi. Ta’lim muassasasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar qatoriga, masalan, elektr ta’minotidagi uzilishlar, kadrlar almashinuvi yoki qo‘nimsizligi, onlayn platformalarning ishlamay qolishi, davlat siyosatidagi o‘zgarishlar kiritish mumkin. Xavflarni aniqlash sohasi tahlili (PESTEL, SWOT, Porter’s 5 Forces metodlari orqali), ichki va tashqi omillarni ko‘rib chiqish, xodimlar va ekspertlar fikrini yig‘ish orqali amalga oshiriladi.

Ehtimollikni baholash (Probability). Aniqlangan xavflarning qanchalik xavfli ekanligi tahlil qilinadi. Bu bosqichda xavf yuzaga kelish ehtimoli va uning oqibatlari o‘rganiladi. Ehtimollik darajasi xavfning yuz berish imkoniyati bilan o‘lchanadi, ya’ni:

- yuqori ehtimol tez-tez yuz beradi.
- o‘rta ehtimol – ba’zan yuz beradi.
- past ehtimol – kamdan-kam hollarda ro‘y beradi.

Ta’sir darajasini baholash (Impact/Severity) – xavf ro‘y bersa, tashkilotga yetkazadigan zarar aniqlanadi, ya’ni:

- yuqori darajadagi ta’sir – o‘quv jarayoni to‘xtaydi.
- o‘rta darajadagi ta’sir – muammolar yuzaga keladi, ammo hal qilish mumkin.
- kichik darajadagi ta’sir – qisqa muddatli va yengil oqibatlar.

Misol uchun, agar internet uzilishi ehtimoli yuqori bo‘lsa va uning ta’siri katta bo‘lsa – bu xavf darhol ustuvor xavf sifatida qayd etiladi.

Xavf-matritsasia tuzish. Tahlildan keyin har bir xavfning qanchalik jiddiy ekanligi belgilanadi va ustuvorlik darajasiga ko‘ra saralanadi (1-jadval).

1-jadval. *Xavflarni baholashda maxsus matritsasi*

	Ta’sir past	**Ta’sir o‘rta**	**Ta’sir yuqori**
Ehtimollik yuqori	Xavf B	Xavf A	Xavf X
Ehtimollik o‘rta	Xavf C	Xavf B	Xavf A
Ehtimollik past	Xavf D	Xavf C	Xavf B

Bu yerda:

A – yuqori xavf;

B – o‘rta xavf;

C – past xavf;

D – e’tiborga loyiq emas;

X – juda yuqori xavf bildiradi.

Matritsani quyidagi ketma-ketlikda qo‘llaniladi:

1. Xavflarni aniqlanash. Masalan: raqobatchi yangi mahsulot chiqarsa, valyuta kursi o‘zgarishi, texnologik nosozlik.

2. Baholash: Har bir xavfning ehtimoli va ta’sir darajasini aniqlash.

3. Matritsaga joylashtirish: Xavflarni mos katakka qo‘yish.

4. *Harakat strategiyasini aniqlash (2-jadval).*

2-jadval. *Strategyasini aniqlash harakatlari*

Rang	Xulosa	Harakat
🔴 **Qizil**	Juda xavfli, ustuvor muammo	Darhol chora ko‘rish, rejani o‘zgartirish
🟠 **Sariq**	Jiddiy xavf	Monitoring + zaxira rejalar tayyorlash
🟡 **Och sariq**	E’tiborli nazorat	Profilaktika va kuzatuvchi strategiya
🟢 **Yashil**	Xavf minimal	Katta chora kerak emas, kuzatish
🟢 **Och yashil**	Xavfr deyarli yo‘q	Aralashuv talab qilinmaydi

Bu matritsa orqali qaysi xavfga birinchi bo‘lib e’tibor qaratish kerakligini aniqlash va xavflarni ustuvorlik bo‘yicha boshqarish mumkin. Baholash asosida tashkilot har bir xavfga nisbatan qanday choralar ko‘rishini yoki boshqarishni belgilaydi.

Xavflarni boshqarish – bu tashkilot faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlash, baholash va ularga javob choralarini ishlab chiqish jarayonidir.

Ushbu ta’rifda ifodalangan yana bir muhim jihat – bu xavflarni boshqarish oqibatlarning o‘zini emas, balki oqibatlarning ta’sirini kamaytirishga qaratilgan. Shak-shubhasiz, bunday minimallashtirishning eng yaxshi usuli – bu xavf ehtimoli va/yoki oqibatlarini chegaralash yoki minimallashtirishdir (oqibatlar qanchalik kichik bo‘lsa, ta’sir ham shunchalik kam bo‘ladi). Agar xavflar qilingan hisob-kitoblarga ko‘ra, tashkilot faoliyatiga sezilarli darajada ta’sir etmasa, u holda ularning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘yiladi. Asosiysi, bu qaror muassasa rahbariyati tomonidan asosli va ongli ravishda qabul qilinishi kerak.

Xavflarni boshqarish nazariyasi va amaliyotining uch asosiy yo‘nalishlari mavjud. Birinchi yo‘nalish xavflar haqida ogohlantirish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish xavflarning tashkilotga olib kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni minimallashtirish masalalariga tegishlidir. Uchinchi yo‘nalish, xavfli vaziyatlarda qo‘shimcha daromad olish yoki boshqa tijorat afzalliklarini qo‘lga kiritish imkoniyati bilan bog‘liq. Yuqorida aytib o‘tilgan uch yo‘nalishlarni birgalikda tartibga solish orqali tashkilot rahbari xavflarni boshqarishning chinakam samarali tizimini yaratishga erishadi.

Ta’lim muassasasida xavflarni boshqarishning asosiy maqsadi – noaniqliklarni nazorat qilish, ta’lim oluvchilarga sifatli ta’lim berish va strategik maqsadlarga xavfsiz erishish imkonini yaratishdir.

Demak, xavflarni boshqarishni xavfli hodisalarning sodir bo‘lish ehtimolini ma’lum darajada oldindan bashorat qilishga imkon beradigan turli xil chora-tadbirlardan foydalanish hamda ularning ta’sir darajasini yumshatishga qaratilgan qarorlarni qabul qilish jarayoni sifatida ifodalash mumkin.

Xavflarni boshqarish samaradorligi ko‘p jihatdan barcha usul va usullardan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Xavflarni boshqarish usullari ular ta’sir darajasini pasaytirish usullaridan iborat. Xavfni boshqarishning beshta asosiy usullarini ko‘rsatish mumkin:

1) Xavfni kamaytirish
2) Xavflarni oldini olish
3) Xavflarni transfer qilish
4) Xavflarni qabul qilish
5) Xavflarni diversifikatsiya qilish

Ta’lim muassasalarida xavflarini boshqarishda bir necha usullardan foydalaniladi. Ulardan biri *xavflarni kamaytirish* (Xavf Mitigation) bo‘lib, xavf ehtimolini yoki uning oqibatlarini iloji boricha kamaytirish imkonini beradi. Ushbu usul texnologik nosozliklarni kamaytirish uchun serverlarni zaxira tizim bilan ta’minlash, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish orqali malakasizlik xavfini kamaytirish uchun ko‘proq mos keladi.

Ikkinchi usul *xavflarni oldini olish* (Xavf Avoidance) bo‘lib, xavf manbasini butunlay bartaraf etish yoki xavfli faoliyatdan voz kechishni bildiradi. Ushbu usul ta’lim oluvchilar xavfsizligini ta’minlash uchun avariya holatida binoni vaqtincha yopish, noto‘liq sertifikatlangan o‘quv platformalaridan foydalanishni taqiqlashda foydalaniladi.

Keyingi usul *xavflarni transfer qilish* (Xavf Transfer) usuli bo‘lib, xavf bilan bog‘liq mas’uliyatni boshqa tashkilot yoki shaxs zimmasiga o‘tkazishni anglatadi. Bu usul ta’lim infratuzilmasini sug‘urtalash yoki tashqi IT-xizmatlar yoki xavfsizlik xizmatlarini shartnoma asosida boshqa tashkilotga topshirish orqali amalga oshiriladi.

Navbatdagi usul *xavflarni qabul qilish* (Xavf Acceptance) usuli bo‘lib, xavf yuzaga kelishi ehtimoli yoki zarari kichik bo‘lsa, tashkilot ushbu xavfni ongli ravishda qabul qiladi va zaxira choralar ishlab chiqiladi. Bu usul elektr energiyasi qisqa muddatli uzilishi ehtimolini qabul qilish va zaxira generator tayyorlash, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlaridagi mavsumiy pasayishini monitoring qilib, qo‘shimcha darslar tashkil etishda o‘z ifodasini topadi.

Hamda oxirgi usul *xavflarni diversifikatsiya qilish* (Xavf Diversification) usuli bo‘lib, xavf ta’sirini bir nechta sohalarga bo‘lib, umumiy zarar ehtimolini kamaytirish jarayonini ifoda etadi. Bu usul bir nechta grant manbalaridan

moliyalashtirish yoki bir nechta onlayn platformalar va texnologiyalardan bir vaqtning o‘zida foydalanishda o‘z aksini topadi.

Xavflarni boshqarish usullarini tanlashda xavf ehtimoli va ta’sir darajasi, xavfni boshqarish xarajatlari, tashkilotning resurslari va imkoniyatlari aniqlanishi, qonunchilik va me’yoriy talablar o‘rganilishi hamda tashkilot strategik maqsadlari belgilanishi kerak. Demak, xavflarni boshqarish usullarini tanlash – tashkilot ehtiyojlari, resurslari va tashqi muhit talablari asosida qilingan puxta va ongli qarordir. Har bir holatda yuqoridagi omillarni chuqur tahlil qilib, shundan so‘ng xavflarni kamaytirish, oldini olish, transfer qilish yoki qabul qilish usulini tanlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta’lim muassasalarida xavflarni strategik baholash va boshqarish – bu tashkilotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim boshqaruv mexanizmi bo‘lib, u ta’lim jarayonidagi ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash, ularning ta’sir darajasini baholash hamda salbiy oqibatlarni minimallashtirishga qaratilgan tizimli yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi-ki, ta’lim tizimida xavflarni samarali boshqarish uchun quyidagi shartlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Strategik yondashuvni joriy etish – xavflarni faqat operativ darajada emas, balki uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan integratsiyalashgan holda boshqarish.

2. Xavf turlarini aniqlash va tasniflash – tashkiliy, pedagogik, moliyaviy, kadrlar, axborot va ijtimoiy-psixologik xavflarni kompleks tahlil asosida baholash.

3. Risklarni boshqarish modelini (masalan, “Bow-tie” modeli) qo‘llash – xavf sabablarini (causes) va oqibatlarini (consequences) aniq ko‘rsatish orqali profilaktika va javob choralarini tizimlashtirish.

4. Monitoring va tahlil tizimini yo‘lga qo‘yish – xavf ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatish, strategik rejalashtirish bilan uzviy bog‘lash.

5. Tashkiliy madaniyatni rivojlantirish – xodimlar va rahbarlar orasida xavfga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatni shakllantirish.

Natijada, ta’lim muassasasida xavflarni strategik boshqarish boshqaruv qarorlarini asoslashda aniqlikni oshiradi, inson resurslari, moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, ta’lim sifatiga, barqaror rivojlanishga va raqobatbardoshlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida xavflarni strategik baholash va boshqarish usullarini amaliyotga tatbiq etish ta’lim muassasalarining samarali faoliyati, innovatsion rivojlanishi va ijtimoiy ishonchini mustahkamlashning muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ахмедов М. У. Umumiy o‘rta ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Тошкент: Fan va texnologiya. 2023.

2. Деркач А.А. Управление качеством и безопасностью образовательного процесса. Санкт-Петербург: Изд-во РГПУ им. Герцена. 2019.

3. Jemmy J., Riyadi S. Implementing risk management in educational institutions: Approaches and best practices. International Journal of Quality Assurance in Education, 2023. 8(1), 14–27.

4. Исроилжонова М. Управление рисками в образовательных учреждениях: опыт и перспективы. Science and pedagogy in the modern world. 2025. (Vol. 3 No. 7.). С. 44-47.

5. Karapetyan S. The necessity of risk management in the context of strategic management of higher education institutions. Journal of Education in the 21st Century, Yerevan State University. 2023.

6. Князева Е.В. Риск-менеджмент в образовательных организациях. Москва: Академия педагогических наук. 2020.

7. Кузьмина Н.В. Психолого-педагогические риски в управлении образованием. Москва: Педагогика Пресс. 2018.

8. Маманазарова Н.К. Управление системы образования на основе маркетинга. Научный вестник Наманганского государственного университета, 2023. №7 С. 805-813

9. Rahayu S., Nugroho D., Haryanto T. Risk management for public universities: Why and how? A conceptual analysis. Research Journal of Finance and Accounting, 2024. 15(2), 33–42.

10. Сергеенко И.В. Стратегическое управление рисками в образовательных учреждениях. Минск: Белорусский государственный педагогический университет. 2020.

11. Siddiq A., & Khan S. Risk management strategies during COVID-19 in higher education: A case study of Pakistan. Asian Social Science and Research Journal, 2022. 5(3), 45–56.

REFERENCES:

1. Axmedov M. U. Umumiy o‘rta ta’lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Toshkent: Fan va texnologiya. 2023. (In Uzbek)

2. Derkach A.A. Upravleniye kachestvom i bezopasnostyu obrazovatelnogo protsessa. Sankt-Peterburg: Iz-vo RGPU im. Gersena. 2019. (In Russian)

3. Jemmy J., Riyadi S. Im risk management in educational institutions: Approaches and best practices. International Journal of Quality Assurance in Education, 2023. 8(1), 14–27.

4. Isroiljonova M. Upra riskami v obrazovatelnix uchrejdeniyax: opit i perspektivi. Science and pedagogy in the modern world. 2025. (Vol. 3 No. 7.). C. 44-47. (In Russian)

5. Karapetyan S. The necessity of risk management in the context of strategic management of higher education institutions. Journal of Education in the 21st Century, Yerevan State University. 2023.

6. Knyazeva Ye.V. Risk-menedjment v obrazovatelnix organizatsiyax. Moskva: Akademiya pedagogicheskix nauk. 2020. (In Russian)

7. Kuzmina N.V. Psixologo-pedagogicheskiye riski v upravlenii obrazovaniyem. Moskva: Pedagogika Press. 2018. (In Russian)

8. Mamanazarova N.K. Upravleniye sistemi obrazovaniya na osnove marketinga. Nauchniy vestnik Namanganskogo gosudarstvennogo universiteta, 2023. №7 S. 805-813. (In Russian)

9. Rahay S., Nugroho D., Haryanto T. Ris management for public universities: Why and how? A conceptual analysis. Research Journal of Finance and Accounting, 2024. 15(2), 33–42.

10. Sergeyenko I.V. Strategicheskoye upravleniye riskami v obrazovatelnix uchrejdeniyax. Minsk: Belorusskiy gosudarstvenniy pedagogicheskiy universitet. 2020. (In Russian)

11. Siddiq A., & Khan S. Risk management strategies during COVID-19 in higher education: A case study of Pakistan. Asian Social Science and Research Journal, 2022. 5(3), 45–56.

DAVLAT ULUSHIGA EGA KORXONALARDA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI

EVALUATION OF OPERATIONAL EFFICIENCY IN STATE-OWNED ENTERPRISES: ISSUES AND APPROACHES

ПРОБЛЕМЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ

Meliyev Isroil Ismoilovich
Oriental universiteti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
Tel.:+998 99-913-20-86
E-mail: isroilmeliyev.@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola davlat ulushiga ega korxonalar faoliyati samaradorligini baholash masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, auditorlik tekshiruvlarida moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida samaradorlikni kompleks tahlil qilishga e’tibor qaratadi. Tadqiqotda xalqaro va milliy tajribalar, normativ-huquqiy hujjatlar (jumladan, Vazirlar Mahkamasining 207-son qarori va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi mezonlari) tahlil etilgan. Samaradorlikni baholashning dolzarbligi globallashuv, raqobat kuchayishi va investitsiya risklari ortishi bilan bog‘liqligi asoslab berilgan. Maqolada likvidlik, to‘lov qobiliyati, rentabellik, tashqi qarzga bog‘liqlik va samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (SMK) bo‘yicha batafsil ko‘rsatkichlar tizimi keltirilgan. Auditorlik faoliyatida tahliliy usullar (gorizontal, vertikal tahlil, koeffitsientlar hisobi) qo‘llanilishi, moliyaviy sog‘lomlashtirish yo‘llari va boshqaruv qarorlari qabul qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Xulosada samaradorlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish, auditorlik xulosalarini qo‘llash va korxonalar faoliyatini yaxshilash bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *davlat ulushiga ega korxonalar, faoliyat samaradorligi, moliyaviy tahlil, auditorlik tekshiruvi, samaradorlik ko‘rsatkichlari, likvidlik, rentabellik, SMK, SYK, moliyaviy sog‘lomlashtirish.*

Abstract. This article is devoted to the issues of evaluating the operational efficiency of enterprises with state participation, focusing on comprehensive analysis based on financial statement data within the audit process. The study examines international and national practices, regulatory documents (including Cabinet Resolution No. 207 and criteria of the State Assets Management Agency). The relevance is justified by globalization, intensifying competition, and rising investment risks. The paper presents a detailed system of indicators including liquidity, solvency, profitability, external debt dependency, and Key Performance Indicators (SMK). Analytical methods used in auditing (horizontal and vertical

analysis, ratio calculations), financial recovery pathways, and their role in management decision-making are highlighted. The conclusion offers recommendations for improving efficiency indicators, applying audit opinions, and enhancing enterprise performance. The research contributes to the development of methodological approaches for assessing and increasing the efficiency of state-involved enterprises in Uzbekistan.

Key words: *state-owned enterprises, operational efficiency, financial analysis, audit examination, performance indicators, liquidity, profitability, key performance indicators, financial recovery, efficiency assessment.*

Аннотация. Статья посвящена проблемам оценки эффективности деятельности предприятий с государственным участием с акцентом на комплексный анализ на основе данных финансовой отчетности в процессе аудита. Исследование рассматривает международный и национальный опыт, нормативно-правовые акты (включая Постановление Кабинета Министров №207 и критерии Агентства по управлению государственными активами). Актуальность обоснована процессами глобализации, усилением конкуренции и ростом инвестиционных рисков. В работе представлена детальная система показателей: ликвидность, платежеспособность, рентабельность, зависимость от внешнего долга, ключевые показатели эффективности (СМК). Описаны аналитические методы аудита (горизонтальный и вертикальный анализ, расчет коэффициентов), пути финансового оздоровления и их значение для принятия управленческих решений. В заключении предложены рекомендации по совершенствованию показателей эффективности, применению аудиторских заключений и повышению результативности деятельности предприятий. Исследование способствует развитию методических подходов к оценке и повышению эффективности предприятий с государственным участием в Узбекистане.

Ключевые слова: *предприятия с государственным участием, эффективность деятельности, финансовый анализ, аудиторская проверка, показатели эффективности, ликвидность, рентабельность, ключевые показатели эффективности, финансовое оздоровление, оценка эффективности.*

KIRISH

Xalqaro amaliyotda iqtisodiy globallashuv va integratsiya jarayonlarining kuchayib borishi auditorlik faoliyatida ham umumqabul qilingan xalqaro me’yorlar va standartlarga o‘tishni hamda ularga amal qilishni taqozo etmoqda. Auditorlik faoliyati evolyutsiyasi auditorlik tekshiruvlari sifatini oshirishda tahliliy amallar ulushining barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Rivojlangan Yevropa

va Amerika davlatlari audit o‘tkazishda ko‘p asrlik tajribaga ega bo‘lib, dastlab g‘arbda ham audit faqat buxgalterlik hujjatlari va hisobotlarini tekshirish hamda to‘g‘riligini tasdiqlash bilan cheklangan bo‘lsa, hozirgi kunda audit tizimida mijoz korxonalar faoliyati uzluksizligi va samaradorligini kompleks baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda auditorlik faoliyatini rivojlantirish hamda mehnat sarfini optimallashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tahliliy amallarning roli ortib bormoqda.

Xalqaro amaliyotda davlat ulushiga ega korxonalar faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasida davlat ulushiga ega korxonalar faoliyati samaradorligini baholash tizimi shakllantirilgan. Biroq, baholash amaliyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat samaradorligini baholash alohida olingan ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Biroq, mulkiy va moliyaviy munosabatlarni murakkablashib borishi, raqobatning hududiy qamrovini tobora kengayishi, investitsion riskning ortishi, innovatsion rivojlanishga asoslanish kabilar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyat samaradorligini baholash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu o‘z navbatida davlat ulushiga ega korxonalar faoliyat samaradorligini baholash metodikasi va uni amaliyotiga yetarlicha ahamiyat qaratilmaganligi bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rnini xolis va haqqoniy baholashni ta’minlash bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda. “...mamlakatda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emas”. Respublikamizda davlat ulushiga ega korxonalar faoliyat samaradorligini baholash bo‘yicha ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar me’yorlaridan korxonalar faoliyatida yetarlicha foydalanilmayapti. Mamlakatimizda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha xalqaro mezonlar va standartlarga mos yaxlit tizimni shakllantirish, uyg‘un metodikani yaratish korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash amaliyoti va uni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bizningcha, ishlab chiqarish samaradorligi - korxona miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlarning foydali natijalar berishi, olingan iqtisodiy samaraning muayyan qiymatga ega bo‘lgan resurslarni qo‘llagan holda eng yuqori ishlab chiqarish hajmiga erishishga sabab bo‘lgan ishlab chiqarish omillari, resurslar sarflariga nisbati bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi va ishlab chiqarish vositalaridan hamda

kapitaldan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi texnik samaradorlik (ishlab chiqarish hajmi), iqtisodiy samaradorlik (mehnat unumdorligi, mehnat resurslari, asosiy fondlar, aylanma resurslar), ijtimoiy samaradorlik (moddiy resurslar, foyda) hisobiga shakllanadi.

Bu borada vikipedia internet tarmog‘ida “ishlab chiqarish samaradorligini hisoblashdan maqsad samaradorlikka nimalar hisobiga erishilganini aniqlash va yana qanday omillar evaziga uni oshirish mumkinligini belgilashdan iborat”ligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining internetdagi rasmiy saytida “samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari - ustav jamg‘armasida davlat ulushi mavjud bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar va davlat korxonalarining ijro etuvchi organi a’zolari (rahbar, rahbar o‘rinbosarlari, bosh hisobchi va boshqalar) faoliyati samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladigan baholash mezonlarining miqdoriy o‘lchovi” ekanligi qayd etilgan. Mazkur agentlikning rasmiy saytida 2024-yil 22- aprel holatiga 1867 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlarning samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (SMK), samaradorligining yig‘indi ko‘rsatkichi (SYK) va ularni bajarish foizlari haqidagi yig‘ma ma’lumotlar keltirilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olima M.Abdujabborovaning fikricha “Samaradorlikni baholashda qo‘llaniladigan iqtisodiy ko‘rsatkichlar 3 guruhga bo‘linadi:

Mutlaq ko‘rsatkichlar (foyda hajmi, xususiy kapital hajmi);

Nisbiy ko‘rsatkichlar (ko‘rsatkichlarning o‘zaro nisbati);

O‘rtacha ko‘rsatkichlar (o‘rtacha oylik ish haqi, o‘rtacha sotish hajmi). Belgilangan sifatdagi mahsulot (ish, xizmat) ni sotish, barcha turdagi resurslardan oqilona foydalanish, daromad hajmining muttasil o‘sishi korxona faoliyati samaradorligining muhim jihatlaridir” **(**Abdujabborova M.,2023).

Rus iqtisodchisi M.Ya.Korobovning ta’kidlashicha “moliyaviy faoliyat samaradorligi tashqi investorlar, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha hamkorlar, mulkdorlar uchun moliyaviy jozibadorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois korxonaning joriy, o‘tgan va kelgusi faoliyati moliyaviy natijalarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi” (Коробов М.Я., 2000: 378).

Iqtisodchi Sh.Mamatovning fikrlariga ko‘ra “samaradorlikni baholash ko‘rsatkichi tizimida korxona menejmenti va xodimlari faoliyati sonlar orqali o‘lchanadi. Indikatorlar bo‘yicha hisobot tayyorlangach, rejalashtirilgan maqsadga qanchalik darajada erishilgani, rejalar qay darajada aniq va to‘g‘ri qo‘yilganini baholash mumkin. Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari natijasi strategik va taktik maqsadlarga tuzatishlar kiritishga ko‘mak beradi”.

Yana bir olima N.Ibrohimova tomonidan xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholashning uslubiy jihatlari tadqiq etilgan (Ibroximova N.A., 2021:№ 6.).


Iqtisodchi olima D.Tojiboyevaning tadqiqotlarida agrar sohada faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligi tahlil etilgan (Tojiboyeva D., 2017: № 12.).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida nazariy va amaliy o‘rganish, tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik tahlil, omilli tahlil qilish usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida korxonalar faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi, aniqlanish va tahlil qilish yo‘llarini takomillashtirish, auditorlik tekshiruvlari sifati va samaradorligini hamda samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi boshqa bir guruh omillar ta’sirini hisoblash yo‘llarini ishlab chiqish va mazkur ko‘rsatkichlarni yaxshilash bo‘yicha ichki imkoniyatlarni aniqlab, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tartibini ishlab chiqishga qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizningcha, korxonalari faoliyatini tahlil etish orqali ular faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlashtirish, ular mulk va mablag‘laridan samarali foydalanish, ular foydasini oshirish hamda xarajatlarini kamaytirish hamda ular faoliyatida hisob-kitoblarni mustahkamlash yo‘llarini aniqlash mumkin.



1-rasm. Moliyaviy hisobot tahlili usullari[1]

Shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy faoliyatini tahlil etishda korxona moliyaviy holati va uning o’zgarishini baholash, korxona to’lov qobiliyatini aniqlash, korxona moliyaviy holati o‘zgarishiga ta`sir etuvchi omillarni tahlil qilish, korxonaning moliyaviy barqarorligiga baho berish, korxona moliyaviy holatini mustahkamash imkoniyatlarini o‘rganish, korxona moliyaviy faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni shakllantirish va boshqalar. Auditorlik tekshiruvida korxona faoliyatining samaradorligi uning moliyaviy

[1] Muallif tomonidan tayyorlangan

hisobot ma’lumotlarini quyidagi usullar yordamida tahlil etish orqali amalga oshiriladi (1-rasm). Mazkur usullar yordamida auditor moliyaviy hisobot shakllaridagi ko‘rsatkichlarni davrlar bo‘yicha o‘zgarishi, ko‘rsatkichlar tarkibiy tuzilishi, o‘zaro o‘xshash yoki mos ko‘rsatkichlarni taqoslash orqali ular o‘rtasidagi aloqa (bog‘liqlik)lar o‘rganiladi. Tahlil jarayoni turli koeffitsient va ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisob-kitoblar orqali amalga oshiriladi. Korxonalar faoliyat samaradorligini baholash va ular moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘zgarishlarini aniqlash auditorlik tekshiruvi uchun muhim ma’lumot manbai hisoblanadi.

2-rasm. Davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy faoliyati tahlilini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar[2]



Auditor uchun yuqorida nomlari keltirilgan me’yoriy hujjatlarning ahamiyati

Muallif tomonidan tayyorlangan

shundaki, tekshirilayotgan subyekt rahbariyatining mazkur hujjatlarda talab etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlashga manfaatdorligini inobatga olgan holda o‘rganilayotgan korxona faoliyatida moliyaviy sog‘lomlashtirish tadbirlariga ehtiyoj darajasini aniqlash, davlat ulushiga ega korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlarini aniqlash, tizim korxonalari amaldagi biznes rejalarining moliyaviy sog‘lomlashtirish me’yorlariga muvofiqligini baholash, moliyaviy sog‘lomlashtirish yo‘l xaritalarini ishlab chiqish va uning bajarilishini monitoring qilish, tizim korxonalarining mukammal yo‘l xaritalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga xo‘jalik birlashmalari hamda hokimliklarni jalb qilish, davlat ulushiga ega korxonalarga tashqi qarz mablag‘larini jalb etish holatini baholash, tekshirilayotgan korxonada moliyaviy sog‘lomlashtirish tadbirlarini korporativ boshqaruv va bankrotlik jarayonlarida qo‘llanilishini ta’minlash imkoniyatlarini beradi. Jumladan, ular faoliyatini tahlil etish dolzarbligi masalasi amaldagi quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablarida ham keltirilgan (2-rasm).

Yuqoridagi muhim vazifalar auditorlar tomonidan tekshirilayotgan kommunikatsiya tizimi korxonasida ham auditorlik turdosh xizmatlari sifatida amalga oshirilishi hamda tekshirilayotgan korxona faoliyati samaradorligini baholash maqsadlarida o‘rganilishi mumkin. Bizningcha, ushbu tahliliy jarayonda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlanib, baholash natijalariga ko‘ra auditor fikri shakllantiriladi (1-jadval).

1-jadval

Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari asosida faoliyat samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari [3]

№	Ko‘rsatkich nomi	Ko‘rsatkichni aniqlash uslubiyati
	I. Likvidlik ko‘rsatkichlari	
1	Joriy likvidlik darajasi	joriy aktivlar / joriy majburiyatlar
2	Tez likvidlik darajasi	(joriy aktivlar - tovar moddiy zaxiralar) / joriy majburiyatlar
3	Kunlik kreditor qarzlar aylanmasi	(mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzdorlik*365) / sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi

Normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

4	Kunlik debitor qarzlar aylanmasi	(xaridor va buyurtmachilarning qarzi*365) _____ (mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum + asosiy faoliyatning boshqa daromadlari)
II. To‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari		
1	Qarz (majburiyatlar)ning kapitalga nisbati	jami majburiyatlar* _____ jami o‘z mablag‘lari
2	Qarz (majburiyatlar)ning aktivlarga nisbati	jami majburiyatlar* _____ jami aktivlar
3	Majburiyatlarning EBITDAga nisbati	jami majburiyatlar _____ (sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar + asosiy vositalar eskirishi o‘zgarishi + nomoddiy aktivlar amortizatsiya summasi o‘zgarishi)
4	EBITDAning qarz to‘lovlariga nisbati	(sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar + asosiy vositalar eskirishi o‘zgarishi + nomoddiy aktivlar amortizatsiya summasi o‘zgarishi) _____ (foizlar shaklidagi qarz xarajatlar + qarzning asosiy to‘lovi)
5	Foiz xarajatlarining qoplanishi	(sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar) _____ foizlar shaklidagi xarajatlar
III.Daromadlik ko‘rsatkichlari		
1	Sof foyda marjasi %	sof foyda (zarar) _____ (mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum + asosiy faoliyatning boshqa daromadlari)
2	Operatsion foyda marjasi %	(sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar) _____ (mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum + asosiy faoliyatning boshqa daromadlari)

3	Aylanma mablag‘larning rentabelligi %	(sof foyda (zarar) + foyda solig‘i + foizlar shaklidagi xarajatlar + asosiy vositalar eskirishi o‘zgarishi + nomoddiy aktivlar amortizatsiya summasi o‘zgarishi) / (joriy aktivlar — joriy majburiyatlar)
4	Aktivlarning rentabelligi %	sof foyda (zarar) / jami aktivlar
5	Kapitalning rentabelligi %	sof foyda (zarar) / jami o‘z mablag‘lari
6	Xarajatlarning qoplanishi	(mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum + asosiy faoliyatning boshqa daromadlari) / (sotilgan mahsulot(tovar, ish va xizmat)larning tannarxi + boshqa operatsion xarajatlar)
IV. Tashqi qarzga bog‘liq ko‘rsatkichlari		
1	Tashqi qarzning majburiyatlarga nisbati	jami tashqi qarz* / jami majburiyatlar*
2	Xorijiy valyutadagi tashqi qarzning jami qarzga nisbati	xorijiy valyutadagi tashqi qarz / jami qarz
V.**Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (SMK)**		
1	Sof tushum prognozining bajarilishi (ming so'm)	Tovarlarni, xizmatlarni yoki ishlarni sotishdan olingan daromadlar. (2-sonli balans shakli bo'yicha sof sotishdan tushgan tushum - 010-satr) Kompaniyaning joriy davr uchun biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatkichlari
2	Sof foyda (zarar) prognozining bajarilishi (ming so‘m)	Soliqdan oldingi foyda - Soliqlar (Balansdagi sof foyda (zarar). shakl raqami 2, qator - 270) Kompaniyaning joriy davr uchun biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatkichlari
3	Aktivlar rentabelligi (%)	**Krr \ u003d Pudn / Asr** , bu erda: **Pudn** - daromad solig'i oldidan foyda - (5-ustun, 240-satr yoki zarar - «Moliyaviy natijalar to'g'risida

		hisobot» No2 shaklning 6-ustunidagi 240-satrda minus belgisi bilan); **Asr** - aktivlar qiymatining o'rtacha arifmetik qiymati, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: **Asr** \u003d (A1 + A2) / 2, bu erda: **A1 -** aktivlarning davr boshidagi qiymati (« Buxgalteriya balansi « 1-shaklning 400-qatorining 3-ustunida); **A2** - davr oxiridagi aktivlarning qiymati («Buxgalteriya balansi» 1-shaklning 400-qatorining 4-ustunida)
4	Mahsulot tannarxini pasaytirish (belgilangan topshiriqdan foizda)	$= \frac{p}{P} \times 100$, bu erda, 3 - 1 so'm tovar mahsulotining tannarxi, **Sp -** tovar mahsulotining umumiy tannarxi yig'indisi, **TP -** joriy narxlarda sotiladigan mahsulotlar miqdori, (2-sonli balans shakli bo'yicha mahsulot (ishlar va xizmatlar) tannarxi, 020-satr)
5	Imkoniyatlardan foydalanish darajasi	$K_{ularni} = Q_{fakt.} / ((Q_{dizayn.} — (Q_{ijarasi.} + Q_{konservalangan.}))$, bu erda: $Q_{fakt.}$ - hisobot davridagi mahsulotning (xizmatlarning) qiyosiy qiymatdagi haqiqiy hajmi; $Q_{dizayn_}$ - $_{asosiy}$ texnologik asbob-uskunalardan to'liq foydalanish va belgilangan ish rejimiga rioya qilish bilan erishilishi mumkin bo'lgan qiyosiy qiymat ko'rinishida belgilangan vaqt oralig'ida mahsulot (xizmatlar ko'rsatish)ning maksimal hajmi ; $Q_{ijarasi_}$ - ijaraga olingan quvvatlarga tegishli ishlab chiqarish hajmi (taqqoslash mumkin); $Q_{konservalangan.}$ - ishlab chiqarish hajmlari (taqqoslash mumkin) mothball quvvatlariga tegishli
6	Qoplash koeffitsiyenti (to'lov qobiliyati)	K_{pl} \u003d $A_2 / (P_2 - D_O)$, bu erda: A_2 - aylanma mablag'lar (inventarizatsiya, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqalar), aktivlar qoldig'ining II bo'limi, 390-satr; P_2 - passivlar, balansning passiv qismining II bo'limi, 770-satr;

		D $_{o}$ - uzoq muddatli majburiyatlar (buxgalteriya balansining 490-qatori)
7	Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	**Kss** = **P1** / (**P2** - **TO**), bu erda: **P1** - o'z mablag'lari manbalari (ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va boshqalar), balansning passiv qismining I bo'limining natijasi, 480-satr; **P2** - passiv, balansning passiv qismining II bo'limi, 770-satr; **TO** - uzoq muddatli majburiyatlar (buxgalteriya balansining 490-qatori)
8	Dividendlarni hisoblash (ming so'mda)	Biznes-rejada ko'rsatilgan rejani amalga oshirish
9	Eksport parametrlarining bajarilishi ko‘rsatkichi (belgilangan topshiriqdan foizda)	Eksport parametrlarining haqiqiy pul ko'rsatkichining bashorat qilingan e'lon qilingan qiymatga nisbati
10	Mahalliylashtirish indikatorining tugallanishi (%)	Joriy davrda tarmoq va (yoki) hududiy mahalliylashtirish dasturlarida aniqlangan loyihalarning amalda amalga oshirilishi foizi. Shuningdek, tovarlar importi darajasi mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan bir xil
11	Investitsiya dasturlarini amalga oshirish (%)	Investitsiya dasturida belgilangan maqsadli (prognoz) ko‘rsatkich, investitsiya dasturi doirasida amalda o‘zlashtirilgan mablag‘lar foiz vakilligi
12	Chet el valyutasining mustaqillik koeffitsienti	Import va eksport nisbati. Import qilingan tovarlar uchun to'lovlar tovar eksporti bilan qoplanishi darajasi. Agar qiymat 1 dan kichik bo'lsa, u ijobiy, 1 dan katta bo'lsa, u salbiy hisoblanadi
13	Aksiyadorlarning investitsiyalari rentabelligi (TSR -	(davr oxiridagi aksiyaning narxi - davr boshidagi aksiyaning narxi + davr davomida to'langan dividendlar)/(aksiyaning davr boshidagi narxi)

	Jami aksiyadorlar qaytish)	

Ta’kidlash joizki, tekshirilayotgan subyekt moliyaviy hisobotining ko‘rsatkichlariga asoslangan yuqoridagi tahlil natijalari auditor fikrini shakllantirishda ham foydalaniladi. Jumladan, davlat ulushiga ega korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 9-martdagi 107-son qaroriga muvofiq, davlat unitar korxonalarining yil yakunlari bo‘yicha auditorlik tekshiruvi xalqaro auditorlik tarmoqlariga va xalqaro uyushmalarga a’zo auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Shuningdek, mazkur qarorda davlat unitar korxonalari tashqi qarzlarni jalb qilishda ishchi organga hisobot yili yakunlari bo‘yicha auditorlik xulosasining nusxasini taqdim etishlari lozimligi, o‘z navbatida ishchi organ davlat ishtirokidagi korxonaning oxirgi yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha auditorlik xulosasi mavjud emasligi yoki salbiy xulosa mavjudligi hollarida davlat unitar korxonalariga tashqi qarzlar jalb qilinishiga ruxsat etilmasligi mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 2015-yil 28- iyuldagi 207-son qarorida esa samaradorlikning muhim ko‘rsatkichi (SMK) va samaradorlikning yig‘indi ko‘rsatkich(SYK)larini aniqlash jarayoni auditorlik tashkilotlarining turdosh xizmatlarini ko‘rsatish yoki auditorlik shartnomasiga alohida xizmat turi sifatida kiritish orqali aniqlanishi belgilangan. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida moliyaviy hisobot ma’lumotlariga tayangan holda yuqoridagi tahliliy ko‘rsatkichlar asosida amalda faoliyat ko‘rsatmayotgan, rentabellik darajasi past va zararli natija bilan ishlayotgan korxonalarni aniqlash, ularni moliyaviy sog‘lomlashtirish hamda faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar faoliyatining samaradorligi ko‘rsatkichlari yoki ularga oid axborotlarga haqiqiy va bo‘lg‘usi investorlar, menejerlar, xizmatchilar, raqobatchilar, kreditorlar, xaridor va buyurtmachilar, mol yetkazib beruvchilar, vazirliklar va idoralar, keng jamoatchilik foydalanib, ularni korxonaning xo‘jalik faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlari, boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichlari, ish aktivligi ko‘rsatkichlari va likvidlik hamda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari qiziqtiradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi sarflangan

resurslar va erishilgan natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Bu esa moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish hamda foyda hajmini oshirish imkonini beradi. Korxonalar faoliyatining samarasi har bir jarayonning bosqichma-bosqich to‘g‘ri tashkil qilinishiga bog‘liq bo‘lib, bunda xo‘jalik jarayonlarining har bir ishtirokchisi o‘z faoliyati yo‘nalishi xususida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi va undan olinadigan samarani ta’minlay olishi umumiy xo‘jalik faoliyati natijasining samaradorligiga olib keladi.

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichi xodimlar, bo‘limlar va butun korxonadagi ishchanlik faolligini nazorat qilish sharoitini yaratadi. Boshqacha aytganda, bu tizim yutuqlar darajasi va unga erishish uchun qilingan xarajatlar darajasini o‘zida aks ettiruvchi faoliyat natijadorligining muhim ko‘rsatkichidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2015-yil 28-iyuldagi 207-sonli qaroriga muvofiq samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini amaliyotga joriy etilishida korxonalarning zarar bilan ishlash faoliyatini, korxonalarda ish samaradorligini yomonlashishini, ortiqcha xarajatlarga, asossiz rag‘batlantirishlarga, resurslardan maqsadsiz foydalanishga, tashkilotlar faoliyatidagi noshaffoflikka, moliyaviy manbalardan maqsadsiz foydalanishga cheklov qo‘yadi.

Fikrimizcha, korxonalar faoliyatini tahlil etish orqali ular faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlashtirish, ular mulk va mablag‘laridan samarali foydalanish, ular foydasini oshirish hamda xarajatlarini kamaytirish hamda ular faoliyatida hisob-kitoblarni mustahkamlash yo‘llarini aniqlash mumkin. Shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy faoliyatini tahlil etishda korxona moliyaviy holati va uning o’zgarishini baholash, korxona to’lov qobiliyatini aniqlash, korxona moliyaviy holati o‘zgarishiga ta`sir etuvchi omillarni tahlil qilish, korxonaning moliyaviy barqarorligiga baho berish, korxona moliyaviy holatini mustahkamlash imkoniyatlarini o‘rganish, korxona moliyaviy faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni shakllantirish kabi amallar bajariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son Qarori. – https://lex.uz/docs/-4215422.

2. Abdujabborova M. Korxonalarning xo‘jalik faoliyati samaradorligi tahlili // International journal of finance and digitalization. – 2023. – Vol. 2. – Issue 03.

3. Ibroximova N.A. Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholashga uslubiy yondashuv // Iqtisod va moliya jurnali. – 2021. – № 6.

4. Коробов М.Я. Финансово-экономический анализ деятельности предприятий: Учебник. – КОО: Издательство «Знание», 2000. – 378 с.

5. Mamatov Sh. Samaradorlikni baholash: qadimgi va zamonaviy mezonlar. –

https://uzse.uz/boards/271.

6. Tojiboyeva D. Fermer xo‘jaliklari samaradorligining ilmiy-nazariy asoslari // Iqtisod va moliya jurnali. – 2017. – № 12. – https://itm.uz.

7. https://kpi.davaktiv.uz/site (Davlat aktivlarini boshqarish agentligining KPI va samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlari).

8. https://uz.wikipedia.org (Ishlab chiqarish samaradorligi va tegishli tushunchalar bo‘yicha ma’lumotlar).

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son Qarori. – https://lex.uz/docs/-4215422. (In Uzbek)

2. Abdujabborova M. Korxonalarning xo‘jalik faoliyati samaradorligi tahlili // International journal of finance and digitalization. – 2023. – Vol. 2. – Issue 03. (In Uzbek)

3. Ibroximova N.A. Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholashga uslubiy yondashuv // Iqtisod va moliya jurnali. – 2021. – № 6. (In Uzbek)

4. Korobov M.Ya. Finansovo-ekonomicheskiy analiz deyatelnosti predpriyatiy: Uchebnik. – KOO: Izdatelstvo «Znaniye», 2000. – 378 s (In Russian)

5. Mamatov Sh. Samaradorlikni baholash: qadimgi va zamonaviy mezonlar. – https://uzse.uz/boards/271. (In Uzbek)

6. Tojiboyeva D. Fermer xo‘jaliklari samaradorligining ilmiy-nazariy asoslari // Iqtisod va moliya jurnali. – 2017. – № 12. – https://itm.uz. (In Uzbek)

7. https://kpi.davaktiv.uz/site (Davlat aktivlarini boshqarish agentligining KPI va samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlari). (In Uzbek)

8. https://uz.wikipedia.org (Ishlab chiqarish samaradorligi va tegishli tushunchalar bo‘yicha ma’lumotlar). (In Uzbek)

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH VA BOZOR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

ПУТИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ

WAYS TO DEVELOP THE SERVICE SECTOR AND IMPROVE MARKET MECHANISMS

Mardonov Baxodir Baxronovich
Orient universiteti Samarqand kampusi
“Biznes va boshqaruv” kafedrasi
v.v.b. Professori, i.f.d.
Tel.: +998 88 287-55-35
E -mail: boxodir82@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda bozor mexanizmlarining ta’siri bayon qilingan. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha fikr va mulohazalar tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan. Tadqiqot ishida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish muammolarini metodolik o‘rganish, sohaning iqtisodiy elementlarini tasniflash bo‘yicha dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish sohasi, mehnat resurslari, bandlik, raqobat, narx, talab, taklif, bozor, investitsiya, boshqaruv usullari, iqtisodiy usullar, boshqaruv vazifalari, ijro mexanizmlari.*

Annotation. This article describes the influence of market mechanisms on the development of the service sector. Opinions and comments on improving market mechanisms for the development of the service sector were also discussed. Most importantly, the author made proposals for improving market mechanisms for the development of the service sector. The study examined the mechanisms of market development, the mechanisms of improving the methodology, the classification of economic elements in a dialectical and teaser manner, comparative and solistirma analysis, statistics, and method analysis.

Key words: *service sector, labor resources, employment, competition, price, demand, supply, market, investment, management methods, economic methods.*

Аннотация. *В данной статье описано влияние рыночных механизмов на развитие сферы услуг. Также были обсуждены мнения и комментарии по поводу совершенствовния рыночных механизмов развития сферы услуг. Самое*

главное, автор внес предложения по совершенствованию рыночных механизмов развития сферы услуг. В ходе исследования были изучены механизмы развития рынка, механизмы совершенствования методики, классификация элементов экономики диалектическим и тизерным образом, сравнительный и солиштирмовый анализ, статистика, анализ методов.

Ключевые слова: *сфера услуг, трудовые ресурсы, занятость, конкуренция, цена, спрос, предложение, рынок, инвестиции, методы управления, экономические методы.*

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko‘rsatish sohasi jahon iqtisodiyotining muhim va tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan soha sifatida o‘zining salmoqli o‘rniga ega. Jahonning rivojlangan G‘arb mamlakatlarida xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning ustun rivojlangan, birinchi darajali sektoriga aylandi. Uning YaIM hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta’minlash, ularning daromadlarini va bo‘sh vaqtlarini ko‘paytirish va boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishdagi roli tobora ortib bormoqda. AQSh yalpi ichki maxsulotining 70 foizi, Fransiyaning 71 foizi, Germaniyaning esa 62,5 foizi xizmat ko‘rsatish sohasi hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ushbu mamlakatlarda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 70 foizidan ortig‘i xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonni rivojlantirish konsepsiyasida 2030 yilga borib, xizmat ko‘rsatish sohasidagi band aholi soni iqtisodiyotda band aholi sonining 58,7 foizni tashkil etish vazifasi qo‘yilgan[4]. Bunday keng ko‘lamli ulkan vazifalarni bajarish xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Iqtisodiyoti jadal taraqqiy etgan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda, tarmoqlarni boshqarishda ularning faoliyatini tashkil etishda nafaqat iqtisodiy mexanizmlarning elementlarini takomillashtirish, balki sohada bozor mexanizmlarini joriy etish masalasiga ham alohida e’tibor qaratishadi. Masalan, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya va boshqa G‘arb davlatlari milliy iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish asosida barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishgan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib O‘zbekistonda ham xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

[4] O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi rasmiy sayti: Uzbekistan2035. Uz.//uz

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Xizmat ko‘rsatish sohasining nazariy asoslarini, uni rivojlantirishning amaliy muammolari va tendensiyalarini tadqiq etgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasini resurslar bilan ta’minlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan” (Василенко Н.В., 2022: 439). “XXI asr boshidagi AQSh rivojlanish tendensiyasi va bozor modelining xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanish yo‘llari, boshqarish mexanizmlari, iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar tahlili, davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki to‘g‘risida konseptual yondashuvlar bayon qilingan” (Супян В.Б., Бабич С.Н., Давыдов А.Ю., Зименко Р.И., 2022:560.). “Xizmat ko‘rsatish sohasida marketingning asosiy fuksiyalari, xizmatlar narxining shakllanish mexanizmlari, xizmatlar bozorining holati va unda marketing tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi hamda aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarning standartlarini aniqlagan” (Новикова М.А., 2021: 192).

Tadqiqotchilar tomonidan xizmat ko‘rsatish sohasida bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ayrim usullar taklif qilingan. Masalan, xizmat ko‘rsatish sohasida bozor mexanizmini takomillashtirish uchun davlat xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash (Макарова С.Н., 2021:40), iste’molchilarni esa rag‘batlantirish orqali sohada barqaror bozor mexanizmini ta’minlash usuli taklif etilgan. Ushbu masalaga noan’anaviy tarzda yondashib, quyidagi tavsiyani bergan: “sohada bozor mexanizmini takomillashtirish uchun monopoliyaga qarshi qonun ishlab chiqish zarur” (Пороховский А. А., 2020: 24-38). N.K.Raximov ham С.Н. Макарова singari xizmat ko‘rsatish sohasi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanish zarur, deb hisoblaydi (Raximov N.K., 2022:21). Bizning nazarimizda, bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha umum e’tirof etilgan yagona usuli yo‘q.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish muammolarini metodolik o‘rganish, sohaning iqtisodiy elementlarini tasniflash bo‘yicha dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan samarali makroqtisodiy siyosat natijasida aholini ish bilan ta’minlashda ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Hududlardagi bandlik darajasining o‘sishi shundan dalolat beradi. Fikrimizning dalili sifatida hududlar bo‘yicha bandlik darajasining dinamikasini keltirmoqchimiz (1-jadval). Ba’zi hududlar jumladan, Toshkent, Andijon viloyatlari respublika

ko‘rsatkichidan 2-3 punktga, Toshkent shahari esa 14,1 punktga yuqori. Lekin ularda yalpi hududiy maxsulotlarni ishlab chiqarish hajmi kam. Masalan, 2024 yilda Toshkent viloyatida aholining bandlik darajasi 72,8 foizni tashkil etib turgan bir vaqtda, yalpi hududiy maxsulotning hajmi YaIM tarkibida 12,5 foizni tashkil etayapti (O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi., 2024:23). Bizning nazarimizda, Toshkent viloyati mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangani yo‘q. Chunki Samarqand viloyatida aholining bandlik darajasi respublika ko‘rsatkichidan 4,5 punktga kam bo‘lishiga qaramasdan yalpi hududiy maxsulotning hajmi mamlakat YaIMning 9,5 foizini tashkil etadi (O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi., 2024:23). Xuddi shunday ma’lumotlarni respublikamizning qolgan hududlarida ham ko‘rish mumkin.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida mehnat resurslarini ish bilan ta’minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida bu borada e’tiborga molik fikrlar bildirilgan. Ba’zi tadqiqot ishlarida bandlik darajasi 70 foizni tashkil etishini ma’qullashgan. Tahlillar shuni aniqladiki, hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasi imkoniyatlaridan hali to‘liq foydalanganicha yo‘q. Xizmat ko‘rsatish sohasining xususiyatlari, jamiyatdagi o‘zgarishlarga tezda moslashuvchanligi, tadbirkorlik faoliyatini boshlashda qulayliklari, yangi ish o‘rinlarni yaratishdagi keng imkoniyati va shu kabi boshqa jihatlari kishilarni ushbu sohada band etish va daromad topish imkonini beradi. Birlashgan millatlar tashkilotining 2030 yilga mo‘ljallagan taraqqiyot dasturida xizmat ko‘rsatish sohasi qishloq aholisini ish bilan ta’minlash va kambag‘allikni barham berishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish sohasining 1 foizga o‘sishi kambag‘allik darajasini 1,5 foizga kamaytiradi.

1-jadval

2021-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi hududlarida mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasi[5]

№	Hududlar nomi	Yillar				2024-yilning 2021-yilga nisbatan o‘zgarishi, (+;-)
		2021	2022	2023	2024	
		Foiz	Foiz	Foiz	Foiz	
1.	Qoraqalpog‘iston respublikasi	60,9	61,6	62,9	63,2	+2,3
2.	Viloyatlar: Andijon	68,2	69,5	70,6	71,2	+3,0

[5] O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Toshkent., 2025. – B.60-75.

3.	Buxoro	67,3	67,2	68,7	68,8	+1,5
4.	Jizzax	67,5	66,2	66,3	67,7	+0,2
5.	Qashqadaryo	62,2	61,9	61,9	62,8	+0,6
6.	Navoiy	68,3	67,7	69,8	70,2	+1,9
7.	Namangan	65,5	64,8	65,9	66,2	+0,7
8.	Samarqand	63,7	64,7	65,0	65,2	+1,5
9.	Surxondaryo	64,5	64,2	63,8	64,3	-0,2
10.	Sirdaryo	64,6	64,0	63,8	64,5	-0,1
11.	Toshkent	70,3	71,0	72,2	72,8	+2,5
12.	Farg‘ona	66,2	67,1	68,4	68,9	+2,7
13.	Xorazm	64,0	64,7	66,9	67,5	+3,5
14.	Toshkent shahri	83,3	82,5	82,3	83,8	+0,5
15.	O‘zbekiston Respublikasi	66,9	67,2	67,9	69,7	+2,8

Hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasidagi ulkan imkoniyatlardan foydalanish darajasi bugungi kun talablariga javob bermaydi. Prezident Sh.Mirziyoev viloyatlardagi har tashriflarida hududlarning iqtisodiy, mehnat va tabiiy salohiyatdan yaxshi foydalanilmayotganligini, istiqboldagi taraqqiyotini aniqlashga yetarli e’tibor berilmayotganligini ta’kidlaydilar.

Hududlarda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minlash, jumladan, qishloq aholisi turmush darajasi va sifatini oshirishdek dolzarb muammo mavjud. O‘zbekistonda jami aholining qariyb 50,0 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi[6]. Ma’lumotlarga qaraganda jahondagi jami qashshoq aholining 70 foizi ham aynan qishloq joylarda yashovchi aholidir[7]. O‘zbekistonda ham kambag‘al oilalar sonining aksariyati bizning taxminiy hisobimiz bo‘yicha 60 foizdan ortig‘i qishloq joylariga to‘g‘ri keladi. Ushbu dolzarb muammoning yechimi iqtisodiyotning asosiy sohasi va hozirda mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning “drayveri”ga aylangan xizmat ko‘rsatish sohasi hal etishi mumkin. Demak, hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun bozor mexanizmlarni tashkomillashtirishni taqozo etadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining yaxshi rivojlanmagan tarmoqlari hali juda ko‘p, ularning hisobidan sohani rivojlantirish imkoniyatlari benihoya keng. Nazarimizda, xizmat ko‘rsatish sohasini respublikada boshqa hududlarida jadal rivojlantirish hisobidan sohani YaIM ulushini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish lozim. Xizmat ko‘rsatish sohasi aholi bandligini ta’minlashning yangi shakllarini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

[6] O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. Statistik to‘plam. Toshkent: 2024 : 36.
[7] https://www.eurekalert.org/pub_releases/2019-03/ifpr-2gf032219.php (murojaat qilingan sana: 20.11. 2024-yil).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari va band aholi soni dinamikasi[8]


Ko‘rsatkichlar	Yillar					2024 yilning 2020 yilga nisbatan o‘sishi, %
	2020	2021	2022	2023	2024	
Doimiy aholi soni, ming kishi	34558,9	34558,9	35271,3	36024,9	37543,2	108,6
Mehnat resurslari soni, ming kishi	19158,2	19158,2	19393,2	19568,1	20085,2	104,8
Ish bilan bandlar soni, ming kishi	13239,3	13239,3	13706,2	13989,5	14261,9	107,7
Mustaqil tarzda ish qidirayotganlar soni, ming kishi	1012,1	1012,1	1235,4	1324,6	1365,8	134.9
Ishsizlik darajasi, foizda	10,5	9,6	8,9	6,8	5,5	x

Respublikamizda doimiy aholi soni muntazam oshib borishi kuzatilmoqda, ya’ni 2024 yilda doimiy aholi 37543,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkichning 2020 yilga nisbatan o‘sishi 108,6 foizga yetgan. Respublikamizda ish bilan bandlar soni 2024 yil 2020 yilga nisbatan 107,7 foizga ko‘paygan. 2024 yilda ishsizlik darajasi 5,5 foizni tashkil etdi (2-jadval).

Iqtisodiyot tarmoqlarida bo‘layotgan tarkibiy o‘zgarishlar aholi bandligi ta’minlashga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi tarmoqlarda jumladan bank va moliya, tashish va saqlash, savdo tarmoqlarida band aholi qisqarib, ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm kabi tarmoqlarida band aholi soni ortib borayapti (O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Statistik to‘plam. T.:-2024: 40.). Ma’lumki, xizmat ko‘rsatish sohasining ba’zi tarmoqlari mavsumiy xarakterga ega bo‘lganligi sababli aholini doimiy ish bilan ta’minlash imkonini bermaydi. Shuning uchun aholini ish bilan ta’minlashning yangicha, ya’ni “kunlik ish bilan ta’minlash” shaklini joriy etish lozim. Xorij

[8] Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Тошкент, 2025. Б.60-65.

mamlakatlari tajribasi ushbu masalada ijobiy natijalarga erishgan. Masalan, Janubiy Koreyaning “Arbayt Samushil” (Kunlik ish beruvchi markaz), AQShda maxsus vebsaytlardan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, barcha yo‘nalishlar bo‘yicha “Indeed”, soatbay ishlar bo‘yicha “Snagajob”, mahalliy ish joylari uchun “Craigslist”, mavsumiy ishlar bo‘yicha “CoolWorks”, masofaviy ishlar uchun “FlexJobs”, talabalar ish topish uchun “CollegeGrad” kabi veb saytlar joriy qilingan. Germaniyada aholiga kunlik ish bilan ta’minlash xizmatlarini tashkil etish uchun bandlik agentliklari tashkil etilgan (Agentur für arbeit). O‘zbekistonda ish beruvchilardan va ishsizlardan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovlarda aholini ish bilan ta’minlashning noan’anaviy ko‘rinishlarini jumladan, bir martalik ish, soatbay ish va kunlik ish bilan ta’minlash maqsadga muvofiq ekanligini bildirishgan. Bizlar hozirgi kunga qadar xizmat ko‘rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi atigi sanoqli muammolarni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qildik. Vaholanki, xizmat ko‘rsatish sohasining jamiyat taraqqiyoti uchun imkoniyatlari katta. Ushbu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqishi sohada bozor mexanizmlariga bog‘liq. Xizmat ko‘rsatish sohasida bozor mexanizmlarini takomillashtirish murakkab vazifa. Shu sababli olimlar, tadqiqotchilar, soha mutaxassislari bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha yagona to‘xtamga kelgani yo‘q. Ular o‘zi xos uslubda bozor mexanizmlarini takomillashtirish mumkin, degan xulosaga kelishgan. Shularning ba’zilarini tahlil qilamiz.




1-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasi barqaror rivojlanishining bozor mexanizmi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlar tomonidan taklif etgan bozor mexanizmlarining o‘ziga xos jihati shundaki, ular sohada davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qo‘llab-quvvatlagan. Masalan, S.N.Makarova sohada bozor mexanizmlarini joriy etish uchun quyidagi ikkita yondashuvdan foydalangan:

Birinchisi, davlat xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, iste’molchilarni esa rag‘batlantirish orqali sohada barqaror bozor mexanizmini ta’minlash usuli (1-rasm).

Ikkinchisi, iste’molchilar xaridini qo‘llab-quvvatlash usuli.

S.N.Makarova xizmat ko‘rsatish sohasida bozor mexanizmini takomillashtirish uchun asosiy e’tiborni talab va taklif elementlariga qaratadi. Shuningdek, u davlatning aholini xizmatlarga bo‘lgan talabini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini e’tirof etadi hamda aholi xaridini oshirishda ish haqining o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatadi. U iste’molchilar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish (kredit, subsidiya va boshqalar) orqali xizmatlardan yanada keng foydalanishga erishish mumkinligini asoslab beradi. A.A.Poroxovskiy esa ushbu masalaga noan’anaviy tarzda yondashgan. U barqaror bozor mexanizmini ta’minlashda biron-bir moliyaviy elementlardan (kredit, subsidiya, investitsiya, soliq imtiyozlari, byudjet va boshqalar) foydalanmagan. Shu nuqtai nazardan qaralganda uning yondashuvi S.N.Makarovanikidan farq qiladi. N.K.Raximov davlat sohaning rivojlanishi uchun moliyaviy investitsiyalarni kiritish, fiskal siyosatni yuritish shuningdek, axborot va maslahat markazlarini tashkil etish, malakali kadrlarni tayyorlash orqali ko‘maklashish lozimligini tushuntirib bergan. Agarda tadqiqotchining ushbu konsepsiyasini chizmada shakllantirsak quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasini qo‘llab-quvvatlash mexanizmi.


N.K.Raximovning xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha bildirgan taklifini amalda tatbiq etsak ijobiy natijaga erishish mumkin. Chunki, xizmat ko‘rsatish sohasi rivoji ko‘p jihatdan moliyaviy mablag‘larga hamda malakali kadrlarga bog‘liq. Shuningdek,

xizmat ko‘rsatish sohasi ma’lum shart-sharoitlar ta’siri ostida ham rivojlanadi. Masalan, sog‘liqni saqlash tarmog‘i aholiga sifatli tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish uchun zamonaviy texnologiyalarga, inshootlarga ega bo‘lishi lozim va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyot bo‘lganligi bilan davlatning moliyaviy yordamiga muxtoj. Aholining yalpi talabini davlatning ishtirokisiz shakllantirib bo‘lmaydi. Yalpi talab albatta boshqarilishi va tartibga solib turilishi lozim. Bu xususda ko‘pgina olimlar o‘z qarashlarini bayon qilishgan. Masalan, V.V.Papov “... jahon tajribasi, muayyan darajada davlat aralashuviga asoslangan bozor mexanizmlariga ega o‘zini o‘zi boshqarish iqtisodiyoti yuqori samaradorli ekanligini ko‘rsatmoqda”, deb ta’kidlagan. Shuningdek u yana o‘z qarashlarini boyitib, quyidagi fikrni ham bildirgan: “... o‘z ixtiyoriga qo‘yilgan bozor, ham iqtisodiy tizimning, ham butun davlatning poydevoriga putur yetkazishga qodir juda ko‘plab oldindan aytib bo‘lmaydigan muammolarni keltirib chiqardi. Chunki bozor barqaror infratuzilmani yaratish va qo‘llab-quvvatlashga qodir emas” (Попов В.В., 2014: 136-159.).

Tadqiqotchilar va olimlarning aksariyatlari davlatning iqtisodiyotga aralishishi orqali bozor mexanizmini barqarorligini ta’minlashga erishish mumkin, degan xulosaga kelishgan. Jumladan, Ye.Glazova Ye.,M. Stepanovalar ham davlat tomonidan narxlarni tartibga solishdagi iqtisodiy usullarini ko‘rsatib, bozor mexanizmining barqarorligini ta’minlashda davlat ishtirokining zarurligini e’tirof etgan tadqiqotchilarning qarashlarini qo‘llab-quvvatlaganlar (Глазова Е., Степанова М., 2011: 40-50).

Xizmat ko‘rsatish sohasida bozor mexanizmlarini takomillashtirishning quyidagi usulini taklif etamiz (3-rasm):



3-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish[9].

[9] Muallif ishlanmasi.

Biz taklif etayotgan usulning mohiyati shundan iboratki, xizmat ko‘rsatish sohasida bozor mexanizmlari davlat hamda ijtimoiy fondlar (halqaro tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘magi) yordamida takomillashtiriladi. Bozor iqtisodiyotida sodir bo‘ladigan quyidagi o‘zgarishlar xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyati bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlarga muammo keltiradi: stixiyali raqobat, inflyatsiya, ishsizlik va shu kabilar. Ushbu muammolarni oldini olish, bozor mexanizmining to‘g‘ri yo‘nalishini ta’minlash, ongli faoliyatni talab etadiki, uni o‘z holiga qo‘yib, befarq bo‘lish inson tabiatiga to‘g‘ri kelmaydi. Davlat va ijtimoiy tashkilotlar yordamida bozor mexanizmlarini tartibga solinishi sohaning taraqqiyot darajasini tezlashtiradi. Iqtisodiyoti jadal rivojlangan mamlakatlar bu sohada katta ishlarni amalga oshirganlar. Ayniqsa, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Angliya kabi yirik mamlakatlar va Gollandiya, Daniya, Shvesiya, Janubiy Koreya mamlakatlarining bozor mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi boy tajribalari tahsinga sazovor. Zamonaviy xizmat ko‘rsatish turlari, innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, daromadlarni qayta taqsimlashning eng ma’qul usullarini qo‘llash va boshqa iqtisodiy jarayonlarda davlatning roli juda yuqori bo‘lgan. Ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanish borasida erishgan muvaffaqiyatlari ibrat namunalariga aylanib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishida bozor elementlarining ta’siri katta. Masalan, raqobat - sohani rivojlanishiga, jumladan, sohaning faoliyat turlarini ko‘paytirishga, xizmatlar sifatini oshirishga, xizmatlar narxini barqarorlashtirishga, umuman olganda, xizmatlar bozori muvozanatini ta’minlashga ta’sir qiladi. Agarda raqobat elementi o‘z funksiyasini bajarmasa, unda soha bozor ishtirokchilarining bir taraflama manfaatiga xizmat qiladi. Natijada bozor muvozanatga erishmaydi. Bu o‘zgarishlar, birgina xizmat ko‘rsatish sohasi bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy sub’ekt faoliyati doirasida bo‘lsa, bu hodisa mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir etmaydi. Biroq, bunday hodisani mamlakat miqyosida va xizmat ko‘rsatish sohasi darajasida ko‘rilsa, yalpi talabni kamayishiga olib kelib, bozor muvozanati buzilishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Василенко Н.В. (2022) Экономика туризма и сферы обслуживания. Учебник. – Москва: НИЦ ИНФРА-М. – 439 стр.

2. Глазова Е., Степанова М. (2011) Цены: Рыночный механизм и государственное регулирование. Мировая экономика и международные отношения. №10.С.40-50.

3. Макарова С.Н. (2021) Развитие механизма управления рынком инфокоммуникационных услуг. 08.00.05-Экономика и управление народным

хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами- сфера слуг). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санк Петербург, С.40.

4. Новикова М.А. (2021) Основы маркетинга сферы услуг: учебное пособие. – Москва: НИЦ ИНФРА-М., – 192 стр.

5. Орлов А. (2013) Медпрактикум. Свободная медицина свободной Франции. Деловой партнер.uz // №15(991) 11-17 апрель, -21 с.

6. Пороховский А. А. (2020) Рыночный механизм американской экономики: роль цифровизации // США & Канада: экономика – политика – культура. – Выпуск № 5 С. 24-38 .

7. Попов В.В. (2014) Экономическое чудо переходного периода: как Узбекистану удалось то, что не удалось ни одной постсоветской экономике// Журнал Новой экономической ассоциация. №1.С.136-159.

8. Рахимов Н.К. (2022) Развитие механизма государственной поддержки производителей в сфере услуг (на материалах Республики Таджикистан). Специальность 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями и комплексами - сфера услуг). Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Душанбе, С.21.

9. Супян В.Б., Бабич С.Н., Давыдов А.Ю., Зименко Р.И. (2022) Экономика США: эволюция модели и условиях глобализации. Учебник. – Москва: Магистр: ИНФРА-М. – 560 стр.

10. Ўзбекистон Республикасининг 2035 йилгача ривожланиш стратегиясининг концепцияси. Расмий сайти: Uzbekistan2035. Uz.//uz

11. Ўзбекистонда ижтимоий ривожланиш ва турмуш даражаси. Статистик тўплам.Тошкент, 2024. Б.23.

12. Ўзбекистонда ижтимоий ривожланиш ва турмуш даражаси. Статистик тўплам.Тошкент, 2024. Б.23.

13. Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Статистик тўплам. Т.:-2024 й. Б.40

14. Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Тошкент, 2025. Б.60-65.

16.Ўзбекистон Республикасининг 2035 йилгача ривожланиш Стратегиясининг концепцияси. Расмий сайти: Uzbekistan2035. Uz.//uz

18. https://www.eurekalert.org/pub_releases/2019-03/ifpr-2gf032219.php (мурожаат қилинган сана: 20.11. 2024 йил).

19. O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. Rasmiy sayti: Uzbekistan2035. Uz.//uz

20. https://mulohaza.uz/xabar/sfera-uslug-v-prioritetax-posstanovleniya (murojaat qilingan sana:16.03.2021 yil).

REFERENCES:

1. Vasilenko N.V. (2022) Ekonomika turizma i sferi obslujivaniya. Uchebnik. – Moskva: NIS INFRA-M. – 439 str. (In Russian)

2. Glazova Ye., Stepanova M. (2011) Seni: Rinochniy mexanizm i gosudarstvennoye regulirovaniye. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya. №10.S.40-50. (In Russian)

3. Makarova S.N. (2021) Razvitiye mexanizma upravleniya rinkom infokommunikatsionnix uslug. 08.00.05-Ekonomika i upravleniye narodnim xozyaystvom (ekonomika, organizatsiya i upravleniye predpriyatiyami, otraslyami, kompleksami- sfera slug). Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Sank Peterburg, S.40. (In Russian)

4. Novikova M.A. (2021) Osnovi marketinga sferi uslug: uchebnoye posobiye. – Moskva: NIS INFRA-M., – 192 str. (In Russian)

5. Orlov A. (2013) Medpraktikum. Svobodnaya meditsina svobodnoy Fransii. Delovoy partner.uz // №15(991) 11-17-aprel, -21 s. (In Russian)

6. Poroxovskiy A. A. (2020) Rinochniy mexanizm amerikanskoy ekonomiki: rol sifrovizatsii // SSHA & Kanada: ekonomika – politika – kultura. – Vipusk № 5 C. 24-38 . (In Russian)

7. Popov V.V. (2014) Ekonomicheskoye chudo perexodnogo perioda: kak Uzbekistanu udalos to, chto ne udalos ni odnoy postsovetskoy ekonomike// Jurnal Novoy ekonomicheskoy assotsiatsiya. №1.S.136-159. (In Russian)

8. Raximov N.K. (2022) Razvitiye mexanizma gosudarstvennoy podderjki proizvoditeley v sfere uslug (na materialax Respubliki Tadjikistan). Spetsialnost 08.00.05 - Ekonomika i upravleniye narodnim xozyaystvom (ekonomika, organizatsiya i upravleniye predpriyatiyami, otraslyami i kompleksami - sfera uslug). Avtoreferat na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Dushanbe, S.21. (In Russian)

9. Supyan V.B., Babich S.N., Davidov A.Yu., Zimenko R.I. (2022) Ekonomika SSHA: evolyutsiya modeli i usloviyax globalizatsii. Uchebnik. – Moskva: Magistr: INFRA-M. – 560 str. (In Russian)

10. O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish ctrategiyasining konsepsiyasi. (In Uzbek)

11. O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. Statistik to‘plam.Toshkent, 2024. B.23. (In Uzbek)

12. O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. Statistik to‘plam.Toshkent, 2024. B.23. (In Uzbek)

13. O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Statistik to‘plam. T.:-2024 y. B.40 (In Uzbek)

14. O‘zbekistonda mehnat va bandlik. Toshkent, 2025. B.60-65. (In Uzbek)

16.O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. (In Uzbek)

18.https://www.eurekalert.org/pub_releases/2019-03/ifpr-2gf032219.php (murojaat qilingan sana: 20.11. 2024-yil). (In Uzbek)

19. O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi. (In Uzbek)

20. https://mulohaza.uz/xabar/sfera-uslug-v-prioritetax-posstanovleniya (murojaat qilingan sana:16.03.2021 yil). (In Uzbek)

O‘ZBEKISTON VILOYATLARIDA ISTE’MOL TOVARLAR BOZORINING JADAL RIVOJLANISH OMILLARI VA TENDENSIYALARI

FACTORS AND TRENDS OF THE RAPID DEVELOPMENT OF THE CONSUMER GOODS MARKET IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN

ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ БЫСТРОГО РАЗВИТИЯ РЫНКА ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ТОВАРОВ В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА

Abdirashidov Ashirali Abdirashidovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi,
ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Tel.: +998 93 530-33-58
E-mail: ashirali.abdirashidov@gmail.com
ORCID: 0000-0001-7737-0155

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston hududlarida iste’mol tovarlari bozorining jadal rivojlanishiga turtki bo‘lgan asosiy omillar va paydo bo‘layotgan tendensiyalar ko‘rib chiqiladi. Unda iqtisodiy islohotlar, demografik dinamika, uy xo‘jaliklari daromadlarining ortishi va mintaqaviy investitsiya siyosatining bozor o‘sishiga ta’siri tahlil qilinadi. Mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, transport va logistika infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli savdo platformalarini rivojlantirish va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tobora ortib borayotgan ta’siriga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda iste’mol talabidagi mintaqaviy farqlar, chakana savdo formatlarini modernizatsiya qilish va yuqori sifatli, mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga o‘tish ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *mintaqaviy iqtisodiyot, iste’mol tovarlari bozori, bozorni rivojlantirish, iqtisodiy islohotlar, mintaqaviy tendensiyalar, uy xo‘jaliklari talabi, raqamli savdo, tadbirkorlik, investitsiya muhiti.*

Abstract. The article examines the main factors and emerging trends that drive the rapid development of the consumer goods market in the regions of Uzbekistan. It analyzes the impact of economic reforms, demographic dynamics, increasing household incomes, and regional investment policy on market growth. Particular attention is paid to the expansion of local production capacities, improvement of transport and logistics infrastructure, development of digital trading platforms, and the increasing influence of small businesses and private entrepreneurship. The study highlights regional differences in consumer demand, the modernization of retail formats and the shift to high-quality, locally produced goods.

Keywords: *regional economy, consumer goods market, market development, economic reforms, regional trends, household demand, digital trade, entrepreneurship, investment climate.*

Аннотация. В статье рассматриваются основные факторы и формирующиеся тенденции, определяющие быстрое развитие рынка потребительских товаров в регионах Узбекистана. Анализируется влияние экономических реформ, демографической динамики, роста доходов домохозяйств и региональной инвестиционной политики на рост рынка. Особое внимание уделяется расширению местных производственных мощностей, совершенствованию транспортно-логистической инфраструктуры, развитию цифровых торговых платформ и усилению влияния малого бизнеса и частного предпринимательства. В исследовании освещаются региональные различия в потребительском спросе, модернизация форматов розничной торговли и переход к высококачественным товарам местного производства.

Ключевые слова: *региональная экономика, рынок потребительских товаров, развитие рынка, экономические реформы, региональные тенденции, спрос домохозяйств, цифровая торговля, предпринимательство, инвестиционный климат.*

KIRISH

O‘zbekiston hududlarida iste’mol tovarlari bozorining jadal rivojlanishi mamlakatning davom etayotgan iqtisodiy o‘zgarishlarining eng muhim jihatlaridan biriga aylandi. so‘nggi o‘n yillikda O‘zbekiston bozorlarni liberallashtirish, xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish va ta’minot zanjirlari samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu islohotlar shahar va qishloq hududlarida iste’mol bozorlarining tuzilishi va dinamikasini tubdan o‘zgartirdi, natijada iste’mol hajmining sezilarli darajada o‘sishi, mavjud mahsulotlarning diversifikatsiyasi hamda mahalliy va import tovarlari ta’minotining kengayishi kuzatildi (International Trade Administration, 2025).

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, iste’mol tovarlari bozori uy xo‘jaliklari farovonligi va xarid qobiliyatining omili bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iste’molchilarning umumiy xarajatlari keskin oshdi. Masalan, 2025-yilning ikkinchi choragida iste’mol xarajatlari taxminan 489 488 milliard so‘mga yetdi, bu avvalgi choraklarga nisbatan sezilarli darajada ko‘p va makroiqtisodiy modellarga ko‘ra yil oxiriga kelib 939 344 milliard so‘mdan oshishi prognoz qilinmoqda (Trading Economics, 2025). Ushbu o‘sish daromadlarning o‘sishi, tezlashtirilgan urbanizatsiya va an’anaviy bozorlar, zamonaviy supermarketlar hamda raqamli platformalarni o‘z ichiga olgan diversifikatsiyalashgan chakana savdo formatlaridan keng foydalanish bilan bog‘liq. Bundan tashqari, yirik hududlarda chakana savdo

aylanmasining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. Jumladan, Toshkent shahar statistika boshqarmasi (2025) ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda chakana savdo aylanmasi o‘tgan yilga nisbatan 14 foizdan oshgan iste’mol tovarlar bozori faolligining dinamikasini ta’kidlaydi.

Biroq, bu o‘sish o‘z o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Iste’mol sektoridagi inflyatsiya bosimi asosiy muammo bo‘lib qolmoqda, yillik narxlarning o‘sishi ikki xonali darajaga yetmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2025) ma’lumotlariga ko‘ra iste’mol narxlari indeksi 2024-yil noyabr oyida 10,0 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2025-yilning mos davriga kelib 7,5 foizga ega bo‘lib 2,5 foiz pasaygan. Bu uy xo‘jaliklarining xarid qilish qarorlariga, ish haqi va jamg‘armalarning real qiymatiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, bozor rivojlanish sur’ati va tuzilishini sezilarli darajada mintaqaviy tafovutlar tavsiflaydi. Xususan, Toshkent va Namangan kabi shahar markazlarida iste’molchilar talabi kuchli va mahsulotlarning xilma-xilligi yuqori bo‘lsa-da, ba’zi qishloq joylarda infratuzilma cheklovlari va daromad darajasining pastligi tufayli orqada qolmoqda.

Ushbu hodisalarni ilmiy o‘rganish juda muhim hisoblanadi. O‘zbekiston hududlarida iste’mol tovarlari bozorining tez kengayishini shakllantiruvchi omillar va tendensiyalarni chuqur tahlil qilish makroiqtisodiy siyosat, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va iste’molchilar xatti-harakatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunishga imkon beradi. Ushbu dinamikani tushunish siyosatchilar, iqtisodchilar va biznes rahbarlariga O‘zbekistonning kengroq iqtisodiy modernizatsiyasi sharoitida bozor integratsiyasini kuchaytirish, teng mintaqaviy o‘sishni rag‘batlantirish va barqaror iste’molchilar farovonligini ta’minlash imkoniyatlarini aniqlashga imkoni beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi “O‘bekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida “Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham ko‘rib chiqildi.

2023-yil uchun belgilangan soliq siyosatida asosiy soliq stavkalari foyda solig‘ining bazaviy stavkasi 15 % , jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 12 % , yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5 % miqdorida o‘zgarishsiz qoldirilyapti (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi 2023).

Shuningdek, tamaki, alkogol va neft mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq, yer va mol-mulk solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari inflyatsiya darajasidan kelib chiqib qariyb 10 % ga indeksatsiya qilinmoqda.

Majlisda qayd etilganidek, qonun loyihasida Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlar bilan bo‘lib o‘tgan “Ochiq muloqot” doirasida berilgan topshiriqlariga asosan biznes uchun qo‘shimcha yengilliklar berilmoqda. Ya’ni, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) stavkasi 15 % dan 12 % gacha, jami daromadi ilk marta 1 mlrd. so‘mdan oshgan tadbirkorlik subyektlari uchun 1 yil, jami daromadi ilk marta 10 mlrd. so‘mdan oshgan tadbirkorlik subyektlari uchun esa 2 yil davomida foyda solig‘i stavkasi 2 baravarga pasaytirilmoqda” deb xabar bermoqda (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi 2023).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliqlarni pasaytirish iqtisodiy yuksalish va davlat daromadlarining o‘sishiga olib kelishini birinchi bo‘lib amerikalik iqtisodchi A. Laffer asoslagan. Laffer o‘z qarashlarini:

Korporatsiyalar daromadiga soliqlar stavkasini haddan tashqari oshirish ularning kapital qo‘yilmalariga bo‘lgan rag‘batini susaytiradi, fan-texnika taraqqiyotini to‘xtatadi, iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi va oxir-oqibatda, davlat byudjeti tushumlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi - deb baholagan.

“Davlat byudjetining daromadlari va soliq stavkasi o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikning grafikda ko‘rilishi”, “Laffer egri chizig‘i” deb nomlandi (Bagwell K., Staiger R. W. 2011: 1238-1273).

Yana o‘z davrida K. Gok soliq yuki darajasining eng optimal, adolatli holatini aniqlash imkoniyatining murakkabligini ta’kidlab, “Angliya uchun har bir insonga 50 shillingdan soliq og‘irligining tushishi, hamda og‘ir bo‘lmagan sharoitda

Ostindiya uchun jon boshiga atigi 1 shillingdan belgilanishi, ular uchun o‘ta og‘ir darajada hisoblanadi, yoki Irlandiyaning 6 million aholisi to‘lashi lozim bo‘lgan soliq summasini Shotlandiyaning 2 million aholisiga mazkur summani to‘lash hech qanday og‘irlik hisoblanmaydi” degan fikrlarini bildiradi (Bagwell K., Staiger R. W. 2011: 1238-1273).

Martin Tompsenning so‘zlariga ko‘ra, oxirgi yillarda yirik kompaniyalarning soliq to‘lashdan bosh tortish holatlari ko‘payib ketmoqda. Bu mamlakatda soliq yukining yuqoriligini ifodalaydi. Korxonalarning soliq to‘lovlari bo‘yicha qarzdorliklarning mavjudligi ham bevosita soliq yukining yuqoriligi bilan bog‘liq hisoblanadi. Yillar mobaynida soliq yukining kamayishi kelajakda soliq to‘lashdan bosh tortish va soliq qarzlarini kamaytirish imkonini beradi (Amiti M., Redding S. J., Weinstein D. E. 2019: 187-210.).

K.F. Shmelevning fikricha, soliq yuki darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi bir qancha omillar mavjud. Bular xo‘jalik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli hamda moliyaviy resurslarining shakllanishi va boshlang‘ich kapitalining tashkil topishining o‘ziga xos xususiyatlari, xo‘jalik subyektining davlatning maxsus investitsion va boshqa loyihalarida ishtiroki, soliq kreditlariga egaligi, byudjet ssudalarining mavjudligi, soliqlar bo‘yicha to‘lovlarni kechiktirishlarning qo‘llanilishidir (Kee H. L., Nicita A., Olarreaga M. 2009: 172-199).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda 1999-2021-yillar oralig‘ida 21 mamlakat bo‘yicha olingan statistik ma’lumotlar asosida soliq tushumlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) ta’siri empirik usulda tahlil qilindi. Asosiy ma’lumot manbai sifatida Jahon bankining “World Development Indicators” bazasidan foydalanildi.

Dastlab, modeldagi har bir o‘zgaruvchining statistik xususiyatlari o‘rganildi. Ular orasida o‘rtacha qiymat, minimum va maksimumlar, standart og‘ishlar kabilar hisoblab chiqildi. Keyin o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish maqsadida skattergrammalar tuzildi. YaIM va investitsiya o‘rtasidagi tarqatma grafik asosida kuchsiz munosabat mavjudligi sezildi. Bu kuzatuvlar korrelyatsiya tahlili yordamida aniqlashtirildi. Soliq tushumlari va investitsiyalarning YaIMga ta’siri korrelyatsion koeffitsiyent yordamida baholandi, lekin natijalar ahamiyatli emasligini ko‘rsatdi: Soliq tushumlari uchun Cor = -0.1261, investitsiyalar uchun esa Cor = -0.0519.

Shu asosda, modelimizni chuqurroq o‘rganish uchun eng kichik kvadratlar usuli (EKKU) orqali chiziqli regressiya o‘tkazildi. Dastlabki natijalar p-qiymatlarning past bo‘lishini ko‘rsatdi, shuning uchun o‘zgaruvchilarni logarifmlab, model yangilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida ta'kidlangan olimlar kabi biz ham tadqiqot o'tkazib , mos ekonometrik model shakllantirish va mos statistik ma'lumotlarni yig'ib olamiz. Yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlardan foydalanib, Jahon iqtisodiyot bankidan model shakllantirishimizga to'g'ri keladigan statistik ko'rsatkichlarni yig'ib oldik.

Modelimizni quyidagicha tuzib oldik:

YaIMit = B0 +B1 * Soliqtushimiit + B2 * Investitsiyait +uit (1.1) Bu modelimizdagi ko'rsatkichlar mazmuni bilan tanishib olsak. Y o'rnidagi ko'rsatkichimiz YaIM ning yillik o'sishiga berilgan. Bunda Jahon banki omboridagi Yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishi ko'rsatilgan. O'zgaruvchimizning STATA-14 dasturida yuritiladigan nomi "YaIM".

X1 ko'rsatkichimizdagi soliq tushumi esa yillik soliq tushumlari YaIM ga nisbatan berilgan. Bu o'zgaruvchimizni ham Jahon banki ma'lumotlar omboridan olganmiz. Bu o'zgaruvchimizning STATA-14 da berilgan nomi esa «Soliqtushumi"

X2 ko'rsatkichimiz esa Investitsiyadir. Bunda Jahon banki ma'lumotlar omboridagi yillik berilgan to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya, sof tushum (YaIM ga nisbatan) ma'lumotlardir. Bu o'zgaruvchimizni STATA-14 dasturida «Investitsiya" nomlab oldik.

Bu ma'lumotlardan foydalanib biz YaIMga Soliq tushumining va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyaning ta'siri bor yoki yo'q ekanini tekshirib olamiz.

Ma'lumotlar Jahon banki ma'lumotlar bazasidan 1999-2021-yillar mobaynidagi 21 mamlakatlar uchun olingan. Bunda biz ma'lumotlari ko'proq bo'lgan mamlakatlarni yig'ib oldik. Boshqa ko'plab mamlakatlarda bu ma'lumotlar juda ham kam berilgan ekan.

Shunday qilib, birinchi bo'lib biz modelimizning tasviriy statistik ko'rsatkichlarni aniqlab olamiz.

1-jadval. O'zgaruvchilarning tasviriy statistik tahlili

O'zgaruvchi	Kuzatma	O'rta arif.	Kv.o'rt.taf	Min	Max
YaIM	483	2.91	3.66	-1.089	14.23
Investitsiya	480	7.98	29.13	-117.37	280.15
Soliq tushumi	477	19.33	6.67	7.90	48.56

Bu javdalga ko'ra YaIM ko'rsatkichimizda kuzatmalar soni 483 taga yetgan va o'rtacha qiymatimiz (Mean) – 2.905957 tashkil etmoqda. Kvadratik o'rtacha tafovutimiz esa - 3.659991 ko'rsatmoqda. Qolgan ko'rsatkichlarimizni esa 1-jadvalda ko'rsak bo'ladi.

Shundan so'ng esa ma'lumot to'plamimizning normal taqsimotga javob bera olishini tekshirib olamiz.




Diagramma 4.YaIM ning normal taqsimot ko‘rsatkichi.

Bu ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdi-ki ma’lumotlarimiz normal.

Bu ko‘rsatkichlar orasidagi munosabatni aniqlash uchun skattergrammadan foydalandik.




Diagramma 2. Soliq tushumlarining normal taqsimot ko‘rsatkichi.

Diagramma skattergramma shaklida hosil qilingan. Ushbu skattergramma yalpi ichki mahsulot va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya orasidagi munosabat yo‘q ekanligini ifoda etadi. Nuqtalarning har xil joyda joylashganligi buning asosidir.




Diagramma 5. YaIM va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya o`rtasidagi munosabat

Bu xulosani raqamli tarzda ifoda etish uchun korrelyatsiya o‘tkazib oldik (2-jadval).

Ko‘rinib turibdiki, soliq tushumi YaIM ga ahamiyatli ta’sir ko‘rsata olmaydi Cor (-0,1261). Xuddi shu modeldagidek Investitsiya YaIM ga ahamiyatli ta’sir ko‘rsata olmaydi Cor (-0.0519).

2-jadval. Korrelyatsiya tahlili

	YaIM	Soliq tushumi	Investitsiya
YaIM	1.0000		
Soliq tushumi	-0.1261	1.0000	
Investitsiya	-0.0519	0.1340	1.0000

Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda modelimizda regression tahlil o‘tkazib ham olamiz.

Buning uchun STATA-14 dasturida eng kichik kvadratlar usulidan foydalanib, hisob-kitob qilib olamiz. Bu natijalarni o‘z nomidan kelib chiqib keyingi “Natijalar tahlili” qismida to‘liq holda taqdim etdik.

Olib borilgan regressiyamiz natijasida p-qiymatlarimiz unchalik ahamiyatli chiqmadi. Shu boisdan modelimizdagi ko‘rsatkichlarimizni logorifmlash usulidan foydalanib logarifmlab oldik va shundan so‘ng regressiya o‘tqazib oldik . Natijalardan ko‘rinib turibdiki, p-qiymatimiz o‘ta ahamiyatlidir. Modelning umumiy statistik ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, F-statistikasi 22.41 ga teng bo‘lib, uning p-qiymati (Prob > F) 0.0000 ga teng, bu model umumiy holda statistik

jihatdan muhimligini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, kiritilgan o‘zgaruvchilar birgalikda YaIMga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

3-jadval. Regressiya tahlili

lnYaIM	Koefitsient	Standart xatolik	t-qiymat	p-qiymat	95% ishonch	intervali	Ahamiyat
Insoliqtushumi	-0.7014	.1162	-6.04	0	-.9299	-.4729	***
Investitsiya	0.1663	.0369	4.51	0	.0938	.2389	***
Constant	2.9392	.3284	8.95	0	2.2935	3.5849	***
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1							

Ushbu regressiya modeli yalpi ichki mahsulot (YaIM) logarifmining soliq tushumlari va investitsiyalar logarifmiga bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan. Modelga 389 ta kuzatuv (observations) jalb etilgan bo‘lib, ikki asosiy mustaqil o‘zgaruvchi (lnSoliqtushumi va lnInvestitsiya) regressiyaga kiritilgan.

R-squared qiymati 0.1041 (10.41%) bo‘lib, bu model izohlayotgan dispersiyaning ulushidir. Ya’ni, soliq tushumlari va investitsiyalar YaIMdagi o‘zgarishlarning 10.41 foizini izohlab beradi. Bu qiymat nisbatan past bo‘lishiga qaramay, iqtisodiy tadqiqotlar uchun maqbul hisoblanadi, chunki makroiqtisodiy modelda YaIMga ta’sir qiluvchi ko‘plab tashqi omillar mavjud.

Regressiya natijalariga ko‘ra soliq tushumining 1 miqdorga oshishi YaIM ning -0.7 qiymatga pasayishiga olib kelar ekan. Investitsiyaning 1 birlikka oshishi esa YaIM ning 0.17 miqdorda oshishiga olib kelar ekan. Bu regressiyamizdan so‘ng modelimizdan ko‘p tarmoqli kolliniarlik va geteroskedastlik muammolari bor yoki yo‘q ekanini tekshirib olamiz.

Bunda bizga STATA-14 dasturida Bryush-Peygan geteroskedastlik testi va Vif ko‘rsatkichlari testlari yordam beradi.

4-jadval. Bryush-Peygan testi

```
chi2(1)      =     0.73
Prob > chi2  =   0.3940
```

Bu modelimizda geteroskedastlik muammosi yo‘qligini ifodad etadi.

5-jadval.VIF ko‘rsatkichlari

	VIF	1/VIF
lnInvestit~a	1.09	0.917488
lnSoliqtus~i	1.09	0.917488
Mean VIF	1.09	

Va bu modelimizda ko‘p tarmoqli kolliniarlik muammosi ham yo‘q ekan.

6-jadval.

Bryush-Godfri testi

lags(p)	chi2	df	Prob > chi2
1	1.701	1	0.1921
2	1.828	2	0.4008

Shundan so‘ng modelimizda avtokorrelyatsiya muammosining borligi yoki yo‘q ekanini tekshirib oldik. 6-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, modelimizda avtokorrelyatsiya yo‘q (Wooldridge J. M., 2013).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda 1999-2021-yillar mobaynida 21 mamlakat bo‘yicha olingan statistik ma’lumotlar asosida soliq tushumlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) ta’siri empirik usulda baholandi. Eng kichik kvadratlar usuli (EKKU) asosida tuzilgan regressiya modeli natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikki o‘zgaruvchining YaIMga ta’siri mavjud bo‘lsa-da, bu ta’sirning darajasi va yo‘nalishi turlicha bo‘ldi.

Tahlil davomida dastlabki modelda p-qiymatlar unchalik ahamiyatli chiqmadi. Biroq, o‘zgaruvchilar logarifmlangach, model kuchliroq statistik asosga ega bo‘ldi. F-statistikasi va p-qiymatlar asosida regressiya modelining umumiy ishonchliligi tasdiqlandi. YaIM logarifmi bilan soliq tushumlari va investitsiyalar logarifmlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan munosabatlar quyidagi natijalarni berdi:

- Soliq tushumining oshishi ayrim hollarda iqtisodiy faollikka teskari ta’sir ko‘rsatmoqda. YaIMga salbiy ta’sir ehtimoli mavjud.
- Investitsiyalarning o‘sishi esa iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi omil sifatida harakat qilmoqda.
- Modelda geteroskedastlik, ko‘p tarmoqli kolliniarlik va avtokorrelyatsiya muammolari mavjud emasligi statistik testlar orqali aniqlangani, tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi.

Bulardan kelib chiqib, quyidagi takliflar taqdim etiladi:

- Soliq stavkalarining qayta ko‘rib chiqilishi lozim, ayniqsa iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan darajadagi yuqori soliqlarni optimallashtirish zarur. Bu borada Laffer egri chizig‘idan foydalanib, iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi stavkalar aniqlanishi mumkin.
- Tadbirkorlik uchun soliq yengilliklarini kengaytirish – kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun foyda solig‘i, QQS yoki qat’iy belgilangan soliqlarda soddalashtirishlar joriy etilishi kerak. Bu o‘zgarishlar tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi va yalpi ichki mahsulotga ijobiy ta’sir qiladi.

•To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar kuchaytirilishi lozim – soddalashtirilgan bojxona tartiblari, kafolatlangan mulk himoyasi, infratuzilma loyihalarida investorlar ishtirokini oshirish orqali bu imkon yaratiladi.

•Soliq boshqaruvining raqamlashtirilishi – soliq ma’lumotlarining ochiqligi va shaffofligi ortsa, nafaqat soliq tushumlari oshadi, balki tadbirkorlar uchun ishonch muhitini ham yaratadi.

•Ilmiy asoslangan soliq siyosatini shakllantirish – barcha soliq islohotlari chuqur tahlil va statistik modellashtirish asosida amalga oshirilsa, uning iqtisodiyotga ko‘rsatadigan salbiy noaniq ta’sirlari kamayadi.

Yuqoridagi tavsiyalar nafaqat tadqiqotda olingan natijalarni amaliyotga joriy qilishga yordam beradi, balki uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sish uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2023). Tashqi savdo bo‘yicha matbuot relizi, 2023-yil 21-dekabr. https://stat.uz

2. Amiti M., Redding S. J., Weinstein D. E. (2019). The Impact of the 2018 Trade War on U.S. Prices and Welfare. Journal of Economic Perspectives, 33(4), 187-210.

3. Bagwell K., Staiger R. W. (2011). What Do Trade Negotiators Negotiate About? Empirical Evidence from the World Trade Organization. American Economic Review, 101(4), 1238-1273.

4. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013)

5. Gujarati D. N., Porter D. C. (2009). Basic Econometrics (5th ed.). McGraw-Hill Education.

6. Kee H. L., Nicita A., Olarreaga M. (2009). Estimating Trade Restrictiveness Indices. The Economic Journal, 119(534), 172-199.

7. Studenmund A. H. (2016). Using Econometrics: A Practical Guide (7th ed.). Pearson Education.

8. Wooldridge J. M. (2013). Introductory Econometrics: A Modern Approach (5th ed.). South-Western Cengage Learning.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2023). Tashqi savdo bo‘yicha matbuot relizi, 2023-yil 21-dekabr. https://stat.uz (In Uzbek)

2. Amiti M., Redding S. J., Weinstein D. E. (2019). The Impact of the 2018 Trade War on U.S. Prices and Welfare. Journal of Economic Perspectives, 33(4), 187–210.

3. Bagwell K., Staiger R. W. (2011). What Do Trade Negotiators Negotiate About? Empirical Evidence from the World Trade Organization. American Economic Review, 101(4), 1238-1273.

4. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013)

5. Gujarati D. N., Porter D. C. (2009). Basic Econometrics (5th ed.). McGraw-Hill Education.

6. Kee H. L., Nicita A., Olarreaga M. (2009). Estimating Trade Restrictiveness Indices. The Economic Journal, 119(534), 172–199.

7. Studenmund A. H. (2016). Using Econometrics: A Practical Guide (7th ed.). Pearson Education.

8. Wooldridge J. M. (2013). Introductory Econometrics: A Modern Approach (5th ed.). South-Western Cengage Learning.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM SOHASI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY INDIKATORLARI

MODERN INDICATORS FOR ASSESSING THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN THE DIGITAL ECONOMY

СОВРЕМЕННЫЕ ИНДИКАТОРЫ ОЦЕНКИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Esonboyev Baxodir Bakir o‘g‘li
O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: bakhodiresonboyev2909@gmail.com
ORCID: 0009-0001-8988-9808

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi rivojlanishini baholashda qo‘llaniladigan zamonaviy indikatorlar tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm rivojlanishini baholashda an’anaviy statistik ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda raqamli transformatsiya darajasini aks ettiruvchi indikatorlardan foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Xususan, onlayn bronlash ulushi, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi, turist boshiga to‘g‘ri keladigan raqamli xarajatlar, smart-destinatsiya indeksi va turizm xizmatlarining raqamli eksporti kabi ko‘rsatkichlar muhim baholash mezonlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari turizm sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda va davlat siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, turizm sohasi, zamonaviy indikatorlar, raqamli transformatsiya, smart-turizm, baholash mexanizmlari.*

Аннотация. В данной статье анализируется система современных индикаторов, применяемых для оценки развития туристической отрасли в условиях цифровой экономики. В исследовании обосновывается необходимость использования наряду с традиционными статистическими показателями таких индикаторов, которые отражают уровень цифровой трансформации туризма. В частности, в качестве важных критериев оценки рассматриваются доля онлайн-бронирования, уровень использования цифровых услуг, объем цифровых расходов в расчёте на одного туриста, индекс «умной дестинации», а также цифровой экспорт туристических услуг. Результаты исследования имеют практическую значимость для разработки стратегии развития туристической отрасли в условиях цифровой экономики и совершенствования государственной политики в данной сфере.

Ключевые слова: *цифровая экономика, туристическая сфера, современные индикаторы, цифровая трансформация, смарт-туризм, механизмы оценки.*

Annotation. This article analyzes a system of modern indicators used to assess the development of the tourism sector in the context of the digital economy. The study substantiates the necessity of applying, alongside traditional statistical indicators, additional metrics that reflect the level of digital transformation in tourism. In particular, indicators such as the share of online bookings, the level of digital service usage, digital expenditure per tourist, the smart destination index, and the digital export of tourism services are considered as key evaluation criteria. The research findings have practical significance for the formulation of strategies aimed at developing the tourism sector under digital economy conditions and for improving public policy in this field.

Key words: *digital economy, tourism sector, modern indicators, digital transformation, smart tourism, evaluation mechanisms.*

KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonlari va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida turizm sohasi an’anaviy xizmat ko‘rsatish tarmog‘i doirasidan chiqib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi, eksport tuzilmasini diversifikatsiya qiluvchi hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiruvchi muhim strategik yo‘nalishga aylanmoqda (UNWTO., 2021.). Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi turizm mahsulotlarini shakllantirish, ularni bozorga chiqarish va iste’molchilarga yetkazish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirib, sohada yangi qiymat zanjirlarini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasi rivojlanishini baholash masalasi ham raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilishini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida turizm sohasini raqamli iqtisodiyot bilan integratsiya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Elektron viza tizimi, onlayn bronlash platformalari, raqamli marketing vositalari hamda turistik axborot tizimlarining joriy etilishi ushbu yo‘nalishdagi amaliy qadamlar hisoblanadi (OECD., Paris: 2020). Biroq, raqamli transformatsiya jarayonida erishilayotgan natijalarni baholashda ko‘pincha an’anaviy miqdoriy ko‘rsatkichlar – turistlar oqimi va umumiy xizmatlar hajmi bilan cheklanib qolinmoqda. Bu esa raqamli texnologiyalarning real iqtisodiy samaradorligi va qo‘shilgan qiymatini to‘liq aks ettirmaydi.

Hozirgi kunga qadar turizm sohasi rivojlanishini baholashda asosan ekstensiv yondashuvlar ustun bo‘lib, ular raqamli iqtisodiyot sharoitida sohaning sifat jihatlarini aniqlash uchun yetarli emas. Zamonaviy iqtisodiy tahlil metodologiyasi

turizm rivojlanishini baholashda “onlayn bronlash ulushi”, “raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi”, “turist boshiga to‘g‘ri keladigan raqamli xarajatlar”, “smart-destinatsiya indeksi” hamda “raqamli texnologiyalar asosida xarajatlarni optimallashtirish samarasi” kabi indikatorlardan foydalanishni talab etmoqda (World Bank., 2021). O‘zbekistonda mazkur ko‘rsatkichlarni tizimli hisoblash va ularni davlat investitsiya hamda raqamlashtirish siyosati bilan uyg‘unlashtirish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi turizm sohasi rivojlanishini baholashda ayrim nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shu munosabat bilan, raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi rivojlanishini baholashda faqat miqdoriy o‘sishga emas, balki innovatsion faollik, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi va barqaror iqtisodiy samaradorlikni aks ettiruvchi zamonaviy indikatorlar tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot doirasida turizm sohasi rivojlanishini baholash bo‘yicha xalqaro yondashuvlar tahlil qilinib, milliy iqtisodiyotning raqamlashtirish darajasi va infratuzilmaviy salohiyatini inobatga olgan holda integrallashgan indikatorlar majmuasini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi (European Commission. Brussels: 2019). Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasi tanlanib, asosiy maqsad raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm rivojlanishini baholash uchun ilmiy asoslangan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi rivojlanishini baholash va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ta’sirini aniqlash masalalari zamonaviy iqtisodiyot fanining murakkab va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda turizmning raqamli transformatsiyasi, smart-destinatsiyalar va innovatsion indikatorlar tizimini shakllantirish masalalari yetakchi iqtisodchi va tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan (Buhalis D., 2019:267-272). Ushbu tadqiqotlar turizm sohasini baholashda an’anaviy statistik ko‘rsatkichlardan tashqari raqamli texnologiyalar ta’sirini hisobga olish zarurligini asoslab beradi.

Xususan, M. Porter raqobatbardoshlik nazariyasida turizm destinatsiyalarining muvaffaqiyatini tabiiy va madaniy resurslar bilan bir qatorda innovatsion va raqamli infratuzilmaga asoslangan klasterlar faoliyati bilan bog‘laydi (Porter M. E., 1998). Uning fikricha, raqamli platformalar, axborot almashinuvi va innovatsion xizmatlar integratsiyasi turizm klasterlarining samaradorligini oshirib, destinatsiyalarning global bozordagi raqobat ustunligini kuchaytiradi. Bu yondashuv raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm rivojlanishini baholashda klasterlashuv va raqamli integratsiya indikatorlarining muhimligini ko‘rsatadi (Porter M. E., 1998).

D. Frextling turizmning iqtisodiy ta’sirini baholashda “Turizm sun’iy yo‘ldosh hisoblari” (Tourism Satellite Account – TSA) tizimini rivojlantirib, raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu mexanizmning ahamiyati yanada ortishini ta’kidlaydi (Frechtling D. C., 2010:136-153). Uning tadqiqotlarida raqamli xizmatlar, onlayn bronlash va elektron savdo orqali shakllanayotgan bilvosita va induksiyalangan samaralarni hisobga olish zarurligi asoslab berilgan. Bu yondashuv turizm sohasida raqamli texnologiyalarning multiplikativ effektini aniqlash imkonini yaratadi.

R. Butler tomonidan ishlab chiqilgan destinatsiyaning hayotiy sikli modeli raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi mazmun kasb etib, muvaffaqiyat ko‘rsatkichlarini raqamli infratuzilma rivoji, turist tajribasining raqamlashtirilgan darajasi va ekologik yuklanish bilan bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Ushbu model turizm rivojlanishini baholashda vaqt omili bilan bir qatorda innovatsion va raqamli indikatorlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Raqamli turizm va smart-destinatsiyalar masalalari D. Buhalis, U. Gretzel, Z. Xiang kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lib, ular turizm rivojlanishini baholashda “raqamli yetuklik darajasi”, “axborot texnologiyalaridan foydalanish intensivligi” va “turist tajribasi indeksi” kabi indikatorlarni taklif etganlar. Ushbu tadqiqotlar zamonaviy sharoitda turizm muvaffaqiyatini baholashda raqamli iqtisodiyot omillarini inobatga olish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Mahalliy olimlardan N. To‘xliyev va T. Abdullaeva O‘zbekiston sharoitida turizm sohasining raqamlashtirilishi, marketing strategiyalari va xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalarini o‘rganib, hududiy xususiyatlar va raqamli infratuzilmaning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida turizm salohiyatini baholashda raqamli axborot resurslari va elektron xizmatlarning roli alohida ta’kidlangan.

Shuningdek, I.S.Tuxfatullin turizm sohasida raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlarini asoslab bergan bo‘lsa, B. Safarov turizm rivojlanishini baholashda ekonometrik modellar va prognozlashtirish usullarini raqamli ma’lumotlar bazasi asosida takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratgan.

Biroq, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi rivojlanishini baholashda ko‘p o‘lchamli zamonaviy indikatorlar tizimini shakllantirish, xususan, raqamli transformatsiya darajasini iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy ko‘rsatkichlar bilan integratsiyalash masalalari hali yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan (Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., 2015:179-188). Mazkur ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish ushbu maqolaning asosiy tadqiqot yo‘nalishini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston turizm sohasi rivojlanish darajasini baholash uchun tizimli tahlil, qiyosiy-mantiqiy yondashuv va kompleks baholash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida an’anaviy statistik ko‘rsatkichlarni raqamli transformatsiya indikatorlari bilan integratsiyalashga yo‘naltirilgan “ko‘p o‘lchamli zamonaviy baholash mexanizmi” tanlab olindi. Ushbu mexanizm turizm sohasi rivojlanishini baholashda uchta asosiy metodologik yo‘nalishni qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston turizm sohasi rivojlanishini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kompleks tahlil natijalari ushbu tarmoqda miqdoriy o‘sishdan sifat va raqamli yetuklik bosqichiga o‘tish tendensiyasi shakllanayotganini ko‘rsatdi. Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, so‘nggi yillarda turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi faqat turistlar oqimining ko‘payishi hisobiga emas, balki raqamli xizmatlar ulushining kengayishi, onlayn platformalar orqali yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi evaziga barqaror oshib bormoqda.

Empirik tahlillar natijasida turizm sohasi rivojlanishini baholashda qo‘llaniladigan an’anaviy ko‘rsatkichlar bilan zamonaviy raqamli va ko‘p o‘lchamli indikatorlar o‘rtasidagi farqlar quyidagi jadvalda tizimlashtirildi.

1-jadval

Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston turizm sohasi rivojlanishini baholash indikatorlarining qiyosiy tahlili (2019–2024 yy. tendensiyalari asosida)[10]

Baholash yo‘nalishlari	An’anaviy ko‘rsatkichlar	Zamonaviy raqamli indikatorlar	Ijobiy natija / samara
Iqtisodiy ta’sir	Kelgan turistlar soni: 6,7 mln kishi	Bir turistning o‘rtacha raqamli va umumiy xarajati: 197 AQSh dollaridan 350 AQSh dollarigacha oshgan	Raqamli xizmatlar hisobiga qo‘shilgan qiymatning 2,1–2,3 barobar o‘sishi
Infratuzilma	Mehmonxonalar soni: 1186 tadan 2200 taga	Raqamli infratuzilma yuklanish	Mavsumiylik ta’sirining pasayishi va xizmatlar uzluksizligi

[10] Muallif ishlanmasi asosida

		koeffitsiyenti (onlayn bronlash, e-navbat): o‘rtacha 0,74	
Texnologik daraja	Turistik subyektlar soni: 1200 tadan 1800 taga	Raqamli transformatsiya indeksi (e-booking, e-payment, CRM)	Tranzaksiya xarajatlarining 25–30 % gacha qisqarishi
Barqarorlik va samaradorlik	Umumiy turistik tushum: 1,3 mlrd dollardan 2,5 mlrd dollarga	Bir xodimga to‘g‘ri keladigan raqamli samaradorlik (KPI): +35–40 %	Yuqori malakali va IT-kompetensiyali ish o‘rinlarining yaratilishi

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2019–2024 yillar davomida turistlar sonining o‘sishi bilan bir qatorda eng muhim zamonaviy indikator – bir turistga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha sarf-xarajat hajmi deyarli 1,7–1,8 barobarga oshgan. Bu holat O‘zbekiston turizm sohasida raqamli xizmatlar, kompleks turpaketlar va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushi kengayayotganidan dalolat beradi.

Raqamli transformatsiya indeksining ijobiy dinamikasi xalqaro e-booking va onlayn platformalar (Booking.com, Airbnb, Expedia va boshqalar) orqali xizmatlar realizatsiyasining oshgani, shuningdek, mahalliy tadbirkorlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi sezilarli darajada yuksalganini ko‘rsatadi. Natijada, turizm xizmatlari bozorida shaffoflik, tezkorlik va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari kengaydi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi rivojlanishini baholashda faqat miqdoriy ko‘rsatkichlarga tayanish yetarli emas, balki raqamli transformatsiya, xizmatlar sifati, iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanishni aks ettiruvchi zamonaviy ko‘p o‘lchamli indikatorlar tizimidan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston turizm sohasi rivojlanishini baholashda miqdoriy ko‘rsatkichlardan sifat va raqamli samaradorlik indikatorlariga o‘tish barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot doirasida taklif etilgan zamonaviy ko‘p o‘lchamli baholash mexanizmi asosida olingan natijalar bir qator muhim ilmiy va amaliy jihatlarni muhokama qilish imkonini berdi.

Birinchidan, raqamli multiplikator samarasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, turizm sohasi raqamli platformalar va elektron xizmatlar orqali nafaqat valyuta tushumlarini oshirmoqda, balki hududiy iqtisodiyotda yangi qiymat zanjirlarini shakllantirmoqda. Xususan, O‘zbekistonda turizmning raqamlashtirilishi Samarqand, Buxoro va Xiva kabi destinatsiyalarda transport, hunarmandchilik,

umumiy ovqatlanish va xizmatlar sohasida raqamli bandlikning oshishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli multiplikator samarasi rivojlangan turistik mamlakatlar (Ispaniya, Turkiya) darajasiga yetmagan bo‘lib, bu holat mahalliy raqamli xizmatlar va kontentning global platformalardagi ulushi hali yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, raqamli infratuzilmaviy yuklanish indeksi bo‘yicha olingan natijalar turistik hududlarda xizmatlar va texnologiyalar konsentratsiyasining muayyan muammolarini yuzaga chiqardi. Turizm rivojlanishini faqat mehmonxonalar yoki obyektlar soni bilan baholash raqamli infratuzilmaning (internet tezligi, mobil xizmatlar, onlayn navigatsiya) mavsumiy turistlar oqimiga moslashuv darajasini to‘liq aks ettirmaydi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, raqamli infratuzilmani hududiy boshqarish orqali mavsumiylikni kamaytirish va past mavsum davrida ham turizm xizmatlaridan barqaror daromad olish imkoniyatlari mavjud. Bu, ayniqsa, ekoturizm, agroturizm va ziyorat turizmi kabi yo‘nalishlarni raqamli platformalar orqali integratsiya qilishni talab etadi.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya omili muhokamasi shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar turizm sohasida faqat qulaylik yaratuvchi vosita emas, balki xarajatlarni kamaytiruvchi va raqobatbardoshlikni oshiruvchi muhim iqtisodiy omil hisoblanadi. Onlayn bronlash, elektron to‘lov va raqamli marketing platformalaridan foydalanish vositachilik xarajatlarini qisqartirib, turizm mahsulotining yakuniy tannarxini pasaytirmoqda. O‘zbekistonda “Smart Tourism” elementlarining joriy etilishi, jumladan, raqamli xaritalar, QR-axborot tizimlari va integratsiyalashgan to‘lov mexanizmlari turistlarning umumiy mamnunlik darajasini o‘rtacha 20–25 % ga oshirganini ko‘rsatmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2021).

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi rivojlanishini baholashda “har bir turistga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha raqamli va umumiy xarajat” ko‘rsatkichi eng muhim strategik indikatorlardan biri bo‘lishi lozim. Faqat turistlar sonini ko‘paytirishga yo‘naltirilgan yondashuv raqamli va tabiiy resurslarning tezroq eskirishi hamda infratuzilma yuklanishining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, O‘zbekiston turizm sohasi uchun “yuqori qiymatli va raqamli jihatdan samarali” rivojlanish modelini qo‘llash va uning muvaffaqiyatini aynan zamonaviy raqamli indikatorlar asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston turizm sohasi rivojlanishini baholash mexanizmlarini tadqiq etish natijasida olingan nazariy va amaliy xulosalar shuni ko‘rsatadiki, soha taraqqiyotini faqatgina miqdoriy o‘sish sur’atlari asosida baholash hozirgi bosqichda yetarli emas. Raqamli transformatsiya sharoitida turizm

rivojlanishini baholashda iqtisodiy samaradorlik, raqamli yetuklik va xizmatlar sifati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga oluvchi kompleks yondashuv zarur hisoblanadi. Tadqiqot doirasida ilgari surilgan zamonaviy ko‘p o‘lchamli baholash mexanizmi turizm sohasi rivojlanishining real holatini chuqurroq va xolisona tahlil qilish imkonini beradi.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi rivojlanishining muvaffaqiyati kelgan turistlar soni bilan emas, balki har bir turistga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha umumiy va raqamli xarajat, raqamli xizmatlar ulushi hamda multiplikativ iqtisodiy samaradorlik bilan o‘lchanishi lozim. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ushbu ko‘rsatkichlarni oshirish uchun turizm xizmatlari qiymat zanjirida mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar va raqamli xizmatlar ulushini kengaytirish muhimligini ko‘rsatdi. Bu holat turizmni yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoq sifatida rivojlantirish uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, turizm sohasi rivojlanishini baholashda raqamli infratuzilmaviy yuklanish indeksini hisobga olish resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar sifati pasayishining oldini olish va turistlar oqimini barqaror boshqarish imkonini berishi aniqlandi. Raqamli infratuzilma — internet qamrovi, onlayn xizmatlar, smart-texnologiyalar va raqamli boshqaruv tizimlarining hududiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashuvi turizm sohasining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot natijalari raqamli integratsiya va shaffoflik omilining ahamiyatini ham tasdiqladi. Raqamli transformatsiya turizm mahsulotining raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, raqamli indikatorlarni baholash tizimiga kiritish turizm sohasining shaffofligini kuchaytiradi, investitsiya muhitini yaxshilaydi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot bazasini shakllantiradi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, turizm sohasi rivojlanishini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Xususan, milliy statistik tizimni raqamli modernizatsiya qilish, turizm sohasida “Turizm sun’iy yo‘ldosh hisoblari” (TSA) tizimini to‘liq joriy etish hamda baholash metodikasiga “har bir turistga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha raqamli xarajat” va onlayn xizmatlar ulushi kabi indikatorlarni asosiy KPI sifatida kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu yondashuv turizmning real iqtisodiy samaradorligini aniqroq baholash imkonini beradi.

Bundan tashqari, turizm sanoatini raqamlashtirishni rag‘batlantirish maqsadida turistik subyektlarning raqamli yetuklik darajasini oshirishga qaratilgan imtiyozli kreditlash, texnologik grantlar va raqamli platformalarga integratsiyalashuvni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni joriy etish zarur. Shu bilan birga, turistik

oqimni faqat an’anaviy markazlarga emas, balki raqamli platformalar orqali rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan ekoturizm, agroturizm va ziyorat turizmi hududlariga yo‘naltirish orqali raqamli va infratuzilmaviy bosimni kamaytirish hamda hududiy multiplikativ samarani oshirish mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi rivojlanishini baholashda zamonaviy indikatorlar tizimidan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan asosli ekanligini tasdiqlaydi hamda O‘zbekiston turizm siyosatini shakllantirish va uni raqamli rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashtirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF–6079-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021) “Turizm sohasini raqamlashtirishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent. UNWTO. (2021) Tourism and Digital Transformation: Measuring Tourism in the Digital Economy. World Tourism Organization, Madrid.

3. OECD. (2020) Digital Transformation in Tourism and Hospitality: Policy and Measurement Issues. OECD Publishing, Paris.

4. World Bank. (2021) Digital Economy for Development (DE4D): Tourism Sector Assessment. Washington, DC.

5. Buhalis D. (2019) Technology in tourism: From information communication technologies to smart tourism and digital ecosystems. Tourism ManagementVol. 75, pp. 267–272.

6. Frechtling D. C. (2010) The Tourism Satellite Account: A Primer. Annals of Tourism Research Vol. 37(1), pp. 136-153.

7. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. (2015) Smart tourism: Foundations and developments. Electronic Markets, Vol. 25(3), pp. 179-188.

8. Xiang Z., Fesenmaier D.R. (2017) Big data analytics, tourism design and smart destinations. Journal of Travel Research, 2017 Vol. 56(6), pp. 749-764.

9. Porter M. E (1998). The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York.

10. European Commission. Smart Tourism Destinations: Digital Innovation for Sustainable Growth. Brussels, 2019.

11. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm sohasi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. Toshkent, 2019-2024.

REFERENCES:

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF–6079-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabr. (In Uzbek)

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021) “Turizm sohasini raqamlashtirishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent. (In Uzbek)

14. UNWTO. (2021) Tourism and Digital Transformation: Measuring Tourism in the Digital Economy. World Tourism Organization, Madrid.

15. OECD. (2020) Digital Transformation in Tourism and Hospitality: Policy and Measurement Issues. OECD Publishing, Paris.

16. World Bank. (2021) Digital Economy for Development (DE4D): Tourism Sector Assessment. Washington, DC.

17. Buhalis D. (2019) Technology in tourism: From information communication technologies to smart tourism and digital ecosystems. Tourism ManagementVol. 75, pp. 267-272.

18. Frechtling D. C. (2010)The Tourism Satellite Account: A Primer. Annals of Tourism Research Vol. 37(1), pp. 136-153.

19. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. (2015) Smart tourism: Foundations and developments. Electronic Markets, Vol. 25(3), pp. 179-188.

20. Xiang Z., Fesenmaier D.R. (2017) Big data analytics, tourism design and smart destinations. Journal of Travel Research, 2017 Vol. 56(6), pp. 749-764.

21. Porter M. E (1998). The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York.

22. European Commission. Smart Tourism Destinations: Digital Innovation for Sustainable Growth. Brussels, 2019.

23. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm sohasi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. Toshkent, 2019-2024. (In Uzbek)

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

STRATEGIC DIRECTIONS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TOURISM SERVICES IN UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Xusniddinova Munavvar Sur’at qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti,
Tel: +998337411141
e-mail: munavvar1141@yandex.com
ORCID: 0009-0002-8934-6616

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda turistik xizmatlar samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning rolini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar turizm industriyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, marketing strategiyalarini kuchaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va sayyohlar uchun qulayliklar yaratish imkonini beradi. Virtual gidlar, onlayn bron tizimlari, raqamli to‘lov tizimlari va interaktiv xaritalar turistik xizmatlarni rivojlantirishda asosiy vositalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, raqamli bo‘linish, axborot xavfsizligi va texnologiyaga qaramlik kabi muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal qilish lozim. Maqolada O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning turizm sektoriga ta’siri va kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari haqida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Raqamli turizm, turistik xizmatlar, raqamli texnologiyalar, onlayn bronlash, raqamli marketing, virtual gidlar, interaktiv xaritalar, raqamli to‘lov tizimlari, barqaror turizm, sun’iy intellekt, sayyohlik innovatsiyalari.*

Abstract. This article analyzes the role of digital technologies in improving the efficiency of tourism services in Uzbekistan. The results of the study show that digital technologies play an important role in the development of the tourism industry, allowing to strengthen marketing strategies, improve the quality of service and create convenience for tourists. Virtual guides, online booking systems, digital payment systems and interactive maps are emerging as key tools in the development of tourism services. However, there are problems such as the digital divide, information security and technology dependence that need to be addressed. The article draws conclusions about the impact of digital technologies on the tourism sector in Uzbekistan and future development directions.

Keywords: *Digital tourism, tourist services, digital technologies, online booking, digital marketing, virtual guides, interactive maps, digital payment systems, sustainable tourism, artificial intelligence, tourism innovations.*

Аннотация. В статье анализируется роль цифровых технологий в

повышении эффективности туристических услуг в Узбекистане. Результаты исследования показывают, что цифровые технологии играют важную роль в развитии туристической отрасли, позволяя усиливать маркетинговые стратегии, повышать качество обслуживания и создавать удобства для туристов. Виртуальные гиды, системы онлайн-бронирования, системы цифровых платежей и интерактивные карты становятся ключевыми инструментами в развитии туристических услуг. Однако существуют проблемы, которые необходимо решать, такие как цифровой разрыв, информационная безопасность и технологическая зависимость. В статье сделаны выводы о влиянии цифровых технологий на сферу туризма в Узбекистане и направлениях ее дальнейшего развития.

Ключевые слова: *Цифровой туризм, туристические услуги, цифровые технологии, онлайн-бронирование, цифровой маркетинг, виртуальные гиды, интерактивные карты, цифровые платежные системы, устойчивый туризм, искусственный интеллект, инновации в туризме.*

KIRISH

